YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 29-iyul, № 28-29 (8047)

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON” AVLODLARIMIZGA BIZDAN MUNOSIB MEROS BO‘LIB QOLADI.
Shavkat MIRZIYOYEV



TEXNOLOGIYALAR — TARAQQIYOT TAYANCHI

Davlatimiz rahbari 22-iyul kuni Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumani va Nurafshon shaharlariga tashrif buyurdi. Tashrif chog‘ida hududda amalga oshirilayotgan bunyokorlik ishlari ko‘zdan kechirildi va qator qurilish obyektlariga start berildi.

Xususan, Toshkent – Samarqand yo‘nalishidagi pullik muqobil avtomobil yo‘li qurilishiga tamal toshi qo‘yildi. Davlatimiz rahbari ushbu loyiha Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudrati va transport-logistika salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

– *Bugun bu sohada tom ma’noda yangi davr boshlanmoqda, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Xalqimiz uchun taraqqiyot va farovonlik timsoli bo‘lib xizmat qiladigan ushbu yirik loyihaning boshlanishi barchamizga muborak bo‘lsin,* – dedi Prezident.

Bundan tashqari, Prezidentimiz tashrif davomida A-373 va Toshkent katta xalqa yo‘llari kesishmasida barpo etilgan yangi yo‘l o‘tkazgichni ko‘zdan kechirdi. Mazkur inshoot transport oqimini samarali tashkil etish, yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, tirbandliklarni kamaytirish hamda Toshkent shahri bilan Nurafshon o‘rtasidagi qatnov vaqtini 10-15 daqiqaga qisqartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Davlatimiz rahbari Nurafshon shahrida Ijtimoiy himoya milliy agentligining yangi barpo etilgan Ijtimoiy himoya majmuasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Toshkent viloyatida ilk marotaba tashkil etilgan Ijtimoiy himoya majmuasi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga kompleks xizmatlarni bir joyda ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Prezidentimiz Nurafshon shahrida axborot xavfsizligi va raqamli texnologiyalarga ixtisoslashgan “Cyber University” davlat universiteti faoliyati bilan ham tanishdi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimizni mintaqaviy IT-xabga aylantirish ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Buning uchun davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, zamonaviy aloqa infratuzilmasini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda innovatsion ekotizimni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda yaratilgan qulay sharoitlar natijasida yurtimizda AT kompaniyalar, yuqori daromadli ish o‘rinlari va raqamli xizmatlar eksporti izchil ko‘paymoqda. Mazkur jarayonda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yosh mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Cyber University” davlat universiteti Prezidentimizning 2025-yil 20-yanvardagi qaroriga muvofiq, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida mustaqil oliy ta’lim muassasasi sifatida tashkil etilgan.

Universitetda axborot va kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt va robototexnika, kiberhuquq, raqamli kriminalistika hamda kiberiqtisodiyot sohalari uchun xalqaro talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda oliygohda 2 ta fakultet va 4 ta kafedra faoliyat yuritib, 8 ta bakalavriat hamda 2 ta magistratura yo‘nalishida qariyb ming nafar talaba tahsil olmoqda.

Universitetda 1 ming 585 o‘rinli o‘quv binosi, 805 o‘rinli talabalar turar joyi, zamonaviy sport majmualari, oshxona va axborot-resurs markazi tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari universitetda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Oliygohda tahsil olayotgan yoshlar bilan samimiy muloqot bo‘lib o‘tdi.

– *Kelajakda sizdek mutaxassislarga ehtiyoj yanada oshadi. Har bir soha va har bir hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat taraqqiy etmaydi. Shuning uchun sizlar o‘z ustingizda tinimsiz ishlab, eng zamonaviy bilimlarni egallashingiz kerak*, – dedi Prezidentimiz.

Universitet jamoasi xalqaro kiberxavfsizlik musobaqalari va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi xakatonlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Ekologik barqarorlik tamoyillari asosida shakllantirilgan oliygohga “Yashil kampus” maqomi berilgan.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev universitetga tutash hududda barpo etiladigan Kelajak texnologiyalari markazi qurilishiga tamal toshi qo‘yish marosimida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida buyuk ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiy asos solgan algoritmlar bugun global iqtisodiyotning o‘zagi va insonlar kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanganini ta’kidladi.

Hozirgi dunyoda raqobat yillar va oylar bilan emas, balki daqiqalar va soniyalar bilan o‘lchanmoqda. Raqamlashtirishni ortga surgan, sun’iy intellektni o‘zlashtirmagan va innovatsiyalarga sarmoya kiritmagan davlatlar global taraqqiyotdan ortda qolishi qayd etildi.

– *Hayotimizning barcha jabhalarini raqamlashtirish bilan jiddiy shug‘ullanmasdan turib, rivojlanish mumkin emas. Busiz kelajagimiz yo‘qligini barchamiz teran anglashimiz kerak,* – dedi Prezident.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning axborot texnologiyalari sohasidagi natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etilmoqda. Joriy yilda venchur investitsiyalar hajmi 5 barobar ko‘payib, o‘sish sur’ati bo‘yicha mamlakatimiz jahonda birinchi o‘ringa ko‘tarildi.

O‘zbekistonning milliy startap ekotizimi qariyb 4,5 milliard dollarga yetdi. Innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish maqsadida mukofot jamg‘armasi 5 million dollar bo‘lgan Prezident startap tanloviga start berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Sun’iy intellekt sohasida hamkorlik bo‘yicha Butunjahon tashkilotining ta’sischilaridan biri bo‘lib, bu boradagi global jarayonlarni shakllantirishda ishtirok etadigan davlatlar safidan joy oldi.

Umumiy maydoni 36 gektar bo‘lgan markaz qurilishiga qariyb 500 million dollar investitsiya jalb qilinadi. U ta’lim, ilmiy tadqiqot, texnologik sinov va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtiradigan yagona innovatsion ekotizim bo‘ladi.

Nurafshon shahrining tanlanishi bejiz emas. Bu yerdagi “Cyber University”da kiberxavfsizlik hamda axborot himoyasi sohalarida qariyb ming nafar mutaxassis tayyorlanmoqda. Endi universitet atrofida butun mamlakat uchun namuna bo‘ladigan yaxlit innovatsion klaster shakllantiriladi.

Markazda kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va kriptografiya yo‘nalishlarida 6 ta zamonaviy laboratoriya tashkil etiladi.

Shuningdek, sun’iy intellekt data-markazi va muhandislik klasteri, himoyalangan kompyuter hamda ma’lumot uzatish qurilmalari, yuqori texnologik tokenlar ishlab chiqarish markazi barpo etiladi. Uchuvchisiz dron qurilmalari va robototexnika vositalarini sinovdan o‘tkazish uchun maxsus poligon faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida mahalliy texnologiyalarni tijoratlashtirish va milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish platformasi yaratiladi. Loyihalarni barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash uchun 5 megavattli energetika quvvatlari barpo etiladi.

Markazga yetakchi global kompaniyalar, universitetlar va olimlarni jalb qilish, talabalar va xodimlar uchun zamonaviy ijtimoiy, madaniy va maishiy infratuzilma yaratish ko‘zda tutilgan.

Eng muhimi, mazkur innovatsion ekotizimda 5 mingdan ziyod yuqori malakali ish o‘rni tashkil etiladi. Markaz Toshkent viloyatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va hududning innovatsion salohiyatini yuksaltirishga katta turtki beradi.

Qayd etilganidek, joriy yilda Toshkent viloyatining raqamli xizmatlar eksporti ilk bor 50 million dollarga yetishi kutilmoqda. Mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish uchun Nurafshon va Chirchiq shaharlarida zamonaviy IT park binolari qurilishiga ham start berildi.

– *Uzoqni ko‘zlab, chin dildan amalga oshirayotgan ortga qaytmas islohotlarimiz Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘lgan yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. “Raqamli O‘zbekiston” kelgusi avlodlarga bizdan munosib meros bo‘lib qoladi,* – dedi davlatimiz rahbari.

Mazkur maskanni Toshkent viloyatining sun’iy intellekt va raqamlashtirish markaziga, yoshlarning bilim, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqaradigan zamonaviy majmuaga aylantirish asosiy maqsad ekani ta’kidlandi.

Kelajak texnologiyalari markazida amalga oshiriladigan ilmiy ishlanmalar, texnologik yechimlar va kashfiyotlar mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Marosimda Xitoy, Rossiya va Germaniya kompaniyalari ishtirokida amalga oshiriladigan, umumiy qiymati 465 million dollar bo‘lgan 9 ta yangi loyiha qurilishiga ham start berildi.

Quvonarlisi, mazkur loyihalar qatoridan Bekobod tumanida amalga oshiriladigan ikkita yirik investitsiya loyihasi ham o‘rin oldi.

Ushbu yangi quvvatlar ishga tushishi natijasida yana 5 mingta ish o‘rni yaratiladi, aholining zamonaviy ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

SARHISOB

IQTISODIYOTDA YUQORI O‘SISHNI TA’MINLASH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hudud va tarmoqlarda o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yil boshidan mamlakatimiz iqtisodiyoti 8,5 foizga o‘sdi. Sanoatda 8 foiz, xizmatlarda 16,9 foiz, qurilishda 13,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,7 foiz o‘sish ta’minlandi. Investitsiyalar hajmi 28 milliard dollarga, eksport 14,4 milliard dollarga yetdi. “Fitch” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog‘ona yaxshiladi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari 40 millionli aholi hayotini yaxshilash uchun 9-10 foizli iqtisodiy o‘sish zarurligini ta’kidladi. Buning uchun hudud va tarmoq rahbarlari mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solishi, har bir loyiha va har bir korxona bo‘yicha aniq natijaga ishlashi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda hudud va tarmoq rahbarlarining olti oylik rejalari ijrosi tanqidiy tahlil qilindi. Ayrim hududlarda yalpi hududiy mahsulot, qurilish, investitsiya, sanoat va eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha zaxiralar to‘liq safarbar etilmagani qayd etildi. Oylik, choraklik va yillik rejalarni bajarmagan rahbarlarga nisbatan mas’uliyat kuchaytirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari har bir vazir va hokimning ishi odamlarning yashash madaniyatida sezilmasa, tadbirkorlarning og‘irini yengil qilmasa, har qanday natija faqat “qog‘ozdagi raqam” bo‘lib qolishini ta’kidladi. Shu bois, joylarda infratuzilma, bandlik, tadbirkorlik va aholi daromadini oshirish bo‘yicha ishlar mutlaqo yangi yondashuv asosida tashkil etiladi.

Yig‘ilishda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada “Dolzarb 40 kunlik” e’lon qilinib, 2 mingta eng og‘ir mahallada ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish boshlandi. Hokimlar ushbu mahallalarda elektr, gaz, yo‘l va suv masalalarini o‘z vaqtida hal qilishga shaxsan javobgar bo‘ladi.

Bandlik tizimi ehtiyojmand aholini o‘qitish, ishga joylashtirish va daromadini oshirish bo‘yicha hududma-hudud ishlaydi. Banklar va mahalla uyushmalari faoliyati ham qayta ko‘rib chiqilib, keyingi uch oy ular uchun amaliy attestatsiya davri bo‘lishi belgilandi. Mahallalarda obodlik, ozodalik va yashash madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ham aniq vazifalar qo‘yildi.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash masalalari ham muhokama qilindi. Hozir 51 ta vazirlik va idorada 322 ta yo‘nalishda moliyaviy jarima qo‘llash vakolati borligi, 2024-2026-yillarda qariyb 3 trillion so‘mlik jarima qo‘llanilgani qayd etildi. Prezidentimiz jazo qo‘llovchi idoralar tadbirkorga avval imkoniyat berishi va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishni o‘rganishi kerakligini ta’kidladi.

Soliq tushumlari yil boshidan 27 foizga ko‘payib, 130 trillion so‘mdan oshgan bo‘lsa-da, qo‘shimcha tushum bo‘yicha yillik reja yetarli darajada bajarilmayotgani tanqid qilindi.

Ishlab chiqarishni tiklash va xususiylashtirish bo‘yicha ham muhim vazifalar belgilandi. Hozir ayrim to‘qimachilik korxonalari ishlamay turgani oqibatida 5 trillion so‘mlik mahsulot va 400 million dollarlik eksport imkoniyati boy berilayotgani aytildi. Yil boshidan 57 ta tarmoq va 76 ta hududiy korxona ishlab chiqarishni 11 trillion so‘mga kamaytirgani ham tanqid qilindi.

Mutasaddilarga ishlamay turgan korxonalarni birma-bir tahlil qilib, ular faoliyatini tiklash topshirildi. Shuningdek, yangi xususiylashtirish dasturi doirasida 100 trillion so‘mlik ko‘chmas mulk, yer maydonlari va davlat ulushlarini savdoga chiqarish, davlat aktivlarini olgan tadbirkorlar uchun to‘lov shartlarini yengillashtirish belgilandi.

So‘nggi uch yilda 11 milliard dollarlik 509 ta eksportbop quvvat ishga tushirilgan bo‘lsa-da, ularning 208 tasi hali eksportga chiqmagan. Agar ushbu korxonalar mahsulotining kamida 30-40 foizi tashqi bozorlarga yo‘naltirilsa, qo‘shimcha 1,5-2 milliard dollar valyuta tushumi ta’minlanishi mumkin.



47 ta maxsus iqtisodiy zonaning 29 tasida yil boshidan buyon umuman eksport bo‘lmagani ham tanqid qilindi. Mutasaddilarga “tezkor brigadalar” tashkil etib, eksportga chiqmagan korxonalar va maxsus iqtisodiy zonalarda sertifikat, aylanma mablag‘, bozor va logistika bilan bog‘liq masalalarni tezkor hal qilish topshirildi.

Milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham vazifalar belgilandi. So‘nggi ikki yilda bu yo‘nalishda 15,5 milliard so‘mlik moliyaviy yordam ko‘rsatilgan. Lekin o‘z brendini ro‘yxatdan o‘tkazgan mahalliy korxonalarning uchdan biri hali eksportga chiqmagan. Shu bois, mahalliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqish va ularni demping hamda kontrafakt mahsulotlardan himoya qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

Tashqi savdo yuklarining 70 foizi temir yo‘l orqali tashilishi, biroq bu yo‘nalishda tadbirkorlardan e’tirozlar ko‘pligi qayd etildi. Yuk vagonlarining yetishmasligi, ayrim temir yo‘l liniyalarida yuklama yuqoriligi sababli logistikada qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Mutasaddilarga qo‘shimcha vagonlarni jalb qilish, temir yo‘l infratuzilmasi uchun Jahon bankidan 200 million dollar mablag‘ jalb etish bo‘yicha kelishuvga erishish topshirildi.

Oliy darajadagi tashriflar doirasida erishilgan kelishuvlar ijrosi ham ko‘rib chiqildi. So‘nggi yillarda 52 ta tashrif davomida 213 milliard dollarlik 1 ming 617 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Endi ushbu “yo‘l xaritalari” ijrosi Hisob palatasi va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qat’iy nazorat qilinadi.

Yig‘ilishda inflyatsiyani jilovlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari ham muhokama qilindi. Viloyat hokimlari yanvar-iyun oylarida inflyatsiyani 3 foizdan oshirmaslikni maqsad qilgan bo‘lsa-da, aksariyat hududlarda bu vazifa bajarilmagani qayd etildi. Go‘sht narxi oshgani munosabati bilan import go‘shtni samolyotda tashish xarajatlarini qoplash uchun 300 milliard so‘m ajratilgani aytildi.

Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari chorvachilikdagi haqiqiy holatni ko‘rsatib bergani ta’kidlandi. Chorvachilik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha mablag‘lar yo‘naltiriladi, yil yakunigacha chetdan 100 ming bosh qoramol va 150 ming bosh qo‘y-echki olib kelish vazifasi qo‘yildi.

Meva-sabzavot va kartoshka zaxirasini shakllantirish, sovitkichli omborlar qurish va oziq-ovqat jamg‘armalarini to‘ldirish bo‘yicha ham aniq choralar belgilandi. Yil yakunigacha 87 ming tonna quvvatga ega 340 ta sovitkichli omborni ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarning hisobotlari, belgilangan topshiriqlar ijrosini joylarda tashkil etish bo‘yicha rejalari tinglandi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

TANQID VA TAHLIL

SUSTKASHLIKNING OQIBATI XAVFLI

So‘nggi yillar sarhisobiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, paxta va g‘alla yetishtirish bo‘yicha Bekobod tumani yetakchilar qatoridan mustahkam o‘rin egallab kelayotganini ko‘rish mumkin. Albatta, bunday natijalarga erishishda tumanimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarining fidokorona mehnati, tashabbuskorligi va tadbirkorligi muhim rol o‘ynamoqda.

Ayniqsa, paxta yetishtirish borasida...

2026-yil paxta mavsumida Toshkent viloyatida 281 ming tonna “oq oltin” yetishtirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich hukumat qarori bilan belgilab berilgan. Rejadagi hosilning 19 foizi, ya’ni 52 ming tonnasi esa tumanimiz hissasiga to‘g‘ri keladi.

Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mavsum boshida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-dekabrdagi PQ-370-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-dekabrdagi 827-sonli qarorlari doirasida 2026-yil hosili uchun tumanda 10 ming gektar maydonga paxta ekish belgilangan.

Shundan 2 959 gektar maydonda paxtani “Shinjon” usulida yetishtirish tavsiya etilgan. Mazkur jarayonga 205 ta fermer xo‘jaligi va 1 ta agroklaster jalb etilgan. Umumiy ekin maydonining 41 foizi, ya’ni 4 111 gektari “Global Textile Group Agro” klaster hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ko‘rib turganingizdek, mavsum boshidanoq rejalar salmoqli edi. Tabiiyki, belgilangan rejalarni amalda ro‘yobga chiqarish uchun qarorlarda nazarda tutilgan agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, jarayonga yangi, serhosil urug‘lik navlarini hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish zarur. Biroq...

Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, yerga mehr bilan munosabatda bo‘lish, undan samarali hosil olish jarayonida sustkashlikka yo‘l qo‘yadiganlar ham, afsuski, har doim uchrab turadi.

Hisobotlar va o‘rganishlar natijalariga ko‘ra, tumanda paxta xomashyosi yetishtirish uchun mas’ul bo‘lgan 205 ta fermer xo‘jaligida barcha agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirib kelinmoqda. Biroq hosilning salmoqli qismi zimmasida bo‘lgan “Global Textile Group Agro” klasterida olib borilayotgan ishlarni qoniqarli deb bo‘lmaydi.

Masalan, chigit ekilgan maydonlarning 32 foizida ko‘chatlar siyraklashib ketgani agrotexnik tadbirlarning yetarli darajada amalga oshirilmaganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, reja bo‘yicha 689 gektar maydonga “Shinjon” usulida chigit ekish belgilangan bo‘lsa-da, amalda bor-yo‘g‘i 14 gektar maydonda ushbu usul qo‘llanilgan. Bu rejaning atigi 2 foizi bajarilganini anglatadi.

Buning ustiga, kuzatuvlar davomida qo‘shqator usulida ekilishi lozim bo‘lgan 1 409 gektar maydonning atigi 28 gektariga chigit ekilgani ma’lum bo‘ldi.

Xorijiy navlarni ekish rejasiga e’tiborsizlik ham achinarli darajada. Raqamlar belgilangan rejaga nisbatan 689 gektar kam maydonda xorijiy navlar ekilganini ko‘rsatmoqda.

Agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda ham jiddiy kamchiliklar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, agroklasterning 4 111 gektar g‘oza maydonlari holati tahlil qilinganda 113 gektar (2.7 foiz) maydon qarovsiz qolgani sababli hosilsiz holatga kelgani aniqlandi. Shuningdek, azotli mineral o‘g‘itlar bilan gektariga o‘rtacha 700 kg miqdorda oziqlantirish zarur bo‘lgan bo‘lsa-da, agroklaster tomonidan ekish jarayonida fosforli va kaliyli o‘g‘itlar solinmasdan paxta ekilgan. 4 ming 111 gektar maydonda bor-yo‘g‘i 330 kg azotli o‘g‘it hamda tarkibida fosfor miqdori kam bo‘lgan 200 kg nitrafos bilan oziqlantirish ishlari amalga oshirilgan. Buning ustiga, 1 656 gektar maydonda chekanka ishlari amalga oshirilmagan, zararkunanda va kasalliklarning oldini olish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmagan.

O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, tuman hokimligi tomonidan “Global Textile Group Agro” klasteri rahbari O.Atamatov nomiga rasmiy xat yo‘llanib, paxta maydonlariga ishlov berishdagi e’tiborsizlik hosildorlik va ishlab chiqarish samaradorligining keskin pasayishiga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirildi. Mazkur ogohlantirishga yana bir muhim holat ham sabab bo‘lgan. Zero, joriy yil g‘alla mavsumida klaster hosil yetishtirish rejasini 1,1 ming tonnaga kam bajargan.

Yil boshidan buyon klaster rahbariyati bilan bir necha bor tushuntirish ishlari olib borilganiga qaramay, agrotexnik tadbirlar hamon o‘z vaqtida va talab darajasida bajarilmay kelinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, Bekobod tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Xalqimizda “Jo‘jani kuzda sanaymiz”, degan naql bor. Bu hikmat hayotning ko‘plab jabhalariga, ayniqsa, dehqonchilikka juda mos keladi. Mo‘l hosil olishni ko‘zlagan dehqon hali yerga nihol qadamasidan yerga ishlov berish, uni ekishga tayyorlash ishlarini boshlaydi. Chunki hosilning barakasi, avvalo, yerga berilgan mehr, o‘z vaqtida va sifatli bajarilgan agrotexnik tadbirlarga bog‘liq.

Sezayotgan bo‘lsangiz kerak, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini isloh qilishga davlat darajasida katta e’tibor qaratilmoqda. Sohaga innovatsion g‘oyalar kirib kelmoqda, fermer va klasterlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Bularning barchasi bir maqsadga — qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, yerning unumdorligini oshirish, mo‘l-ko‘l hosil yetishtirish va xalqimiz farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ammo... har qanday imkoniyat va ko‘mak ortida mas’uliyat ham bor. Ajratilgan yer, berilgan imkoniyat, belgilangan reja va yaratilgan sharoitdan samarali foydalanish — har bir xo‘jalik rahbari va mutasaddining bevosita vazifasidir. Zero, yer kechirmaydi, vaqt kutmaydi. Bugungi e’tiborsizlikning natijasi esa ertaga hosil ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Madamin BOYMATOV,
mustaqil jurnalist

KUN MAVZUSI

YIRIK INVESTITSIYA LOYIHALARIGA START BERILDI

Bekobod tumanida xalqaro savdo, logistika va sanoat salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan yirik investitsiya loyihalari amaliy bosqichga o‘tdi.



Bekobod tumanida “Oybek” erkin savdo zonasi va bojxona postini rekonstruksiya qilish loyihalariga start berish marosimlaridan lavha.

Joriy oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan qator yirik investitsiya va infratuzilma loyihalariga start berildi.

Quvonarlisi, mazkur loyihalar qatoridan Bekobod tumanida amalga oshiriladigan ikkita yirik investitsiya loyihasi ham o‘rin oldi.

Jumladan, Germaniya Federativ Respublikasining “Hyper Partners GmbH” kompaniyasi tomonidan “Oybek” erkin savdo zonasi loyihasini amalga oshirish hamda O‘zbekiston va Tojikistonni bog‘lovchi “Oybek” bojxona postini rekonstruksiya qilish ishlari rasman boshlandi.

Mazkur loyihalar ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, logistika imkoniyatlarini kengaytirish, yuk tashish jarayonlarini jadallashtirish, investitsiyalar oqimini ko‘paytirish hamda hududning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan “Bekobod Invest” kompaniyasining “Bashkortoston” loyihasiga ham rasmiy start berildi. Mazkur loyiha doirasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Yangi investitsiya loyihalarining hayotga tatbiq etilishi Bekobod tumanining investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish hamda hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Bekobodda boshlangan ushbu ulkan investitsiya loyihalari tumanning iqtisodiy taraqqiyotini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Ular xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy ishlab chiqarish va logistika tizimini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududning eksport salohiyatini yuksaltirish orqali Bekobodning nafaqat Toshkent viloyati, balki butun mamlakat iqtisodiyotidagi strategik o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



“Bekobod Invest” kompaniyasining “Bashkortoston” loyihasiga rasmiy start berish marosimidan lavha.

Bekobod tumani hokimligi Axborot xizmati

JARAYON



OBOD MAHALLA — FAROVON XONADON

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, joriy yilning birinchi yarim yilligi yakunlari hamda yil oxirigacha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida belgilangan “Dolzarb 40 kunlik” obodonlashtirish va saxovat oyligi doirasida Bekobod tumani hokimi boshchiligida shtab a’zolari, tashkilot rahbarlari hamda keng jamoatchilik vakillari tumanning tayanch mahallasi — Bunyodkor hamda unga tutash O‘zbekobod, Hamza, Qushchi va Oqtepa mahallalarining yettiligi va mahalla faollari bilan uchrashuv o‘tkazildi. Unda hududlarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari muhokama qilindi.

Shundan so‘ng mas’ullar mahallalarda xonadonma-xonadon yurib, aholi bilan muloqot qildilar. Mahalla yettiligi hamda mahallalarga biriktirilgan tashkilot rahbarlariga ko‘cha va xonadonlar ozodaligini ta’minlash, tomorqa yerlaridan samarali foydalanib, takroriy ekinlar ekishni yo‘lga qo‘yish, uy-joylarni oqlash, gul va rayhonlar ekish, hududlarni obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi.

Qobil BOBOJONOV,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati

QO‘SHMA MUROJAAT

PAXTAGA QO‘SHIMCHA ISHLOV BERING VA HOSILINGIZGA HOSIL QO‘SHING!

Hurmatli dehqon va fermerlar hamda agrar soha xodimlari!

Bu yilgi tabiat qiyinchiliklariga qaramasdan, Siz fermer va dehqonlar tomonidan respublika bo‘yicha 889,5 ming gektar shundan, Shinjon usulida 305,2 ming gektar maydonlarda paxta parvarishlanmoqda.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, hozirgi o‘ta murakkab iqlim sharoitida ko‘plab sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan, ayniqsa, bu yil iyul oyining har yilgidan ko‘ra ikkinchi yarmi o‘ta issiq kelganligi sababli suvchi, mexanizator hamda chekanka (chilpish) qiladigan dala ishchilariga ish haqilarini o‘z vaqtida berib, paxtangizda agrotexnik tadbirlarni, jumladan, sug‘orish, kultivatsiya qilish va chikankani o‘z vaqtida tashkil etishni davr taqazo etmoqda.

Murakkab ob-havo sharoitidan tortib, eng kerakli agrotexnik tadbirlarni qo‘llashgacha bo‘lgan jarayonlardan eson-omon o‘tish oson kechmaydi, albatta.

Eng muhimi, bu yil iyul oyining so‘ngi o‘n besh kunligi va avgust oyining birinchi o‘n kunligi jazirama issiq kunida paxtaning hosilini olib qolib, tun-u kun qilgan halol zahmatli xizmatlari mevasi naqadar totli ekanini hosil pishib yetilib, o‘z vaqtida terib-yig‘ib olinib, xirmonga to‘kilgan damda, asosiysi, belgilangan rejalar oshirib uddalanganidan keyingina anglab yetadi.

Ana shundagina fermerning ko‘ngli xotirjam bo‘ladi. Buning uchun esa har bir fermer xo‘jaligi rahbari o‘z paxta dalasida “Dolzarb – 20 kun” e’lon qilishi lozim.

Himmati baland mirishkor fermerlar!

Iyul-avgust oylarida bajariladigan agrotexnik tadbirlarning ahamiyati paxta hosildorligini oshirishda nihoyatda muhim. Negaki, hosilning ertasi, sifatli va mo‘l bo‘lishi ayni shu oydagi mehnat natijasi bilan o‘lchanadi. Zero, g‘o‘za agrotexnikasi talablarga muvofiq bajarilsa, rivoji tezlashib, ko‘saklarga ko‘sak qo‘shiladi, erta pishib yetiladi, hosilga baraka kiradi.



“G‘o‘za pishmaydi” degan qarash noto‘g‘ri. O‘zbekistonning qisqa vegetatsiya sharoitida uning pishishini texnologik reja asosida boshqarish kerak. Yashil ko‘sak emas, pishgan, ochilgan va terib olingan paxta haqiqiy hosildir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, paxtadan mo‘l hosil olish uchun iyul-avgust oylarida fermerlar tomonidan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish zarur bo‘layotganligini hamda ortiqcha yetishtirilgan har bir kilogramm paxta uchun qo‘shimcha daromad olishingizni yurakdan his etib, quyidagi tadbirlarni har qachongidan ham mas’uliyat bilan yondashib amalga oshiraylik!

Ushbu QR-kod orqali Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston fermerlari kengashining qo‘shma murojaati bilan to‘liq tanishishingiz mumkin.

ZAMONDOSH QAHRAMON

KATTA MAQSADLAR KICHIK QADAMLARDAN BOSHLANADI



Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Yoshlarning tadbirkorlik g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, hamda yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida 2025-yilning 14-fevral kunida “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorga binoan, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning innovatsion g‘oyalari, startaplari qo‘llab-quvvatlanib, yangi ish o‘rinlari yaratilgan holda ishsizlikni ham kamaytirish ko‘zda tutilgan. Yosh tadbirkorlar faoliyatiga katta yordam berilib, mamlakatimizga xorijiy investitsiya kiritish hajmini oshirish hamda ta’lim tizimida ham rejali islohotlarni amalga oshirish maqsad qilingan. Bu to‘g‘rida davlatimiz rahbarining yosh tadbirkorlar bilan bo‘lgan uchrashuvida ham aytib o‘tilgan va rejalar belgilab berilgan. Uchrashuvda 287 ming nafardan ortiq yosh tadbirkorlar qatorida tumanimiz vakili EdEx ta’lim klasteri asoschisi Shoxrux Izatullayev ham qatnashgan.

Biz – “Yangi Bekobod” gazetasi jamoasi tuman tadbirkorlariga o‘rnak bo‘layotgan ushbu inson bilan suhbatlashdik va kelgusidagi rejalari bilan qiziqdik.

- Assalomu alaykum, hurmatli, Shoxrux aka, to‘g‘risi EdEx ta’lim klasteri haqida eshitganimda bunchalik katta tarmoqligini bilmagandim, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalaringizni kuzatib bildimki, siz bog‘cha yoshidan boshlab tumanimiz yoshlarini xalqaro maydonga olib chiqadigan tizim yaratayotgan ekansiz. Xalqaro universitetlar, xorijiy hamkorlar orqali faqat ta’lim berish bilan cheklanmay, o‘quvchilaringizni sohasining yetuk mutaxassisi sifatida yaxshi ish topishiga ham xizmat qilayotganingiz tahsinga loyiq. Sizga faoliyatingiz bilan bog‘liq bir nechta savollar bilan yuzlanamiz. Umid qilamizki, beradigan javoblaringiz gazetamiz o‘quvchilari uchun manfaatli bo‘ladi. Bizni birinchi bo‘lib EdEx kids tashkil etilishi, hozirda qancha bolani parvarishlayotgani va bog‘cha faoiliyatiga doir qanday yangiliklarni kutishimiz mumkinligi qiziqtiradi.



- EdEx Kids — ta’lim sohasidagi ilk va eng muhim loyihalarimizdan biri. Uni tashkil etishdan asosiy maqsadimiz bolalarning ilk yoshidanoq zamonaviy ta’lim, milliy qadriyatlar va xalqaro yondashuv uyg‘unlashgan muhitda ulg‘ayishini ta’minlash edi. Bugungi kunda EdEx Kids’da 80 dan ortiq tarbiyalanuvchi ta’lim-tarbiya olmoqda. Biz nafaqat bolalarga sifatli ta’lim berishga, balki ularning intellektual, ijodiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga ham alohida e’tibor qaratamiz. Har bir bolaning qobiliyatini kashf etish va uni rivojlantirish — bizning asosiy maqsadimiz.

Bog‘chamizda zamonaviy o‘quv dasturlari, ingliz tili, 200 ko‘nikma dasturi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi darslar hamda sport va ijodiy to‘garaklar yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, farzandlarimizni maktabga puxta tayyorlash bo‘yicha maxsus dasturlar asosida ishlayapmiz. Bolalarning nutqiy rivojlanishi va to‘g‘ri talaffuzini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilib, malakali mutaxassislar tomonidan logoped mashg‘ulotlari ham olib boriladi. Shuningdek, bolalarning jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash maqsadida maxsus massaj muolajalari ham tashkil etilgan.



Maqsadimiz — EdEx Kids’ni nafaqat hududimizda, balki respublika miqyosida ham namunali va innovatsion maktabgacha ta’lim maskanlaridan biriga aylantirish.

- Maktabgacha ta’lim tashkiloti haqidagi ma’lumotlar kishini quvontiradi. Xo‘sh, EdEx schoolda ta’lim sifatiga qay darajada e’tibor beriladi?

- EdEx School faoliyatida eng ustuvor yo‘nalish — bu ta’lim sifati. Bizning fikrimizcha, zamonaviy bino yoki jihozlar emas, balki kuchli pedagogik jamoa, zamonaviy o‘qitish metodlari va har bir o‘quvchiga individual yondashuv sifatli ta’limning asosiy mezonidir. Shu sababli o‘qituvchilarimizning malakasini muntazam oshirish, darslarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish va o‘quvchilarning bilimini doimiy monitoring qilishga alohida e’tibor qaratamiz.





- Bilamizki, maktab shahar markazida, boshqa xususiy va davlat maktablari yaqinida joylashgan. Raqobat darajasi qanday? Bu ta’lim muassasalari bilan hamkorlik tashkil etilganmi yoki kelajakda shunday rejalar bormi? Yoxud o‘zaro do‘stlik uchrashuvlari, o‘rtoqlik bellashuvlari kabilar olib boriladimi?

- Maktabimiz tumanning markaziy qismida joylashgani bois, albatta, raqobat muhiti mavjud. Ammo biz raqobatni qarama-qarshilik emas, balki rivojlanish omili deb bilamiz. Aynan sog‘lom raqobat har bir ta’lim muassasasini yanada yaxshi natijalarga erishishga undaydi va bundan eng katta foydani o‘quvchilar ko‘radi. Shuningdek, boshqa davlat va xususiy maktablar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish tarafdorimiz. Kelgusida o‘quvchilar uchun fan olimpiadalari, sport musobaqalari, debatlar, kitobxonlik tanlovlari, tajriba almashish dasturlari hamda do‘stlik uchrashuvlarini muntazam tashkil etishni rejalashtirganmiz. Bunday hamkorlik o‘quvchilarning bilimini, muloqot madaniyatini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bizning maqsadimiz nafaqat kuchli maktabni shakllantirish, balki ta’lim sohasida o‘zaro hamkorlik va sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish orqali butun hudud ta’lim sifatining yuksalishiga hissa qo‘shishdir.

- Tibbiyot texnikumi va Deutsch-Hub o‘quv markazi faoliyatlaridan ham xabarimiz bor. Yosh tadbirkor sifatida olib borayotgan ishlaringiz tahsinga loyiq.

- Avvalo, e’tibor va iliq fikrlaringizga rahmat. Biz uchun eng katta yutuq — yoshlar uchun sifatli ta’lim va yangi imkoniyatlar yaratishdir. Shu maqsadda EdEx School, EdEx Kids, tibbiyot texnikumi hamda DeutschHub loyihalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib kelmoqdamiz.

- 2025-yilda Prezidentimiz bilan bo‘lgan tadbirkorlar uchrashuvida ham ishtirok etdingiz. Bu yilgi uchrashuvdan nimalar kutyapsiz? Qanday yangi loyihalarni taqdim etmoqchisiz?

- 2025-yilda Prezidentimiz bilan tadbirkorlar uchrashuvida ishtirok etish men uchun katta sharaf va mas’uliyat bo‘ldi. O‘sha uchrashuvda ta’lim sohasidagi loyihalarimizni taqdim etish, davlatimiz rahbarining fikr va tavsiyalarini eshitish bizga yanada katta motivatsiya bo‘lgandi.

Bu yilgi uchrashuvdan ham umidlarim katta. Eng asosiysi, ta’lim va yoshlar bandligini rivojlantirishga qaratilgan yangi tashabbuslar muhokama qilinishiga ishonaman. Biz ham o‘z navbatida kasb-hunar ta’limini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga tayyorlash bo‘yicha yangi loyihalarimizni taqdim etishni rejalashtirganmiz. Shuningdek, yaqin kelajakda IT, tibbiyot, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni birlashtirgan ta’lim ekotizimini yanada kengaytirish, xalqaro sertifikatlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish hamda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlarini oshirish ustida ishlayapmiz. Ishonchim komilki, davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va yoshlarimiz uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratish mumkin.

- Siz bilan suhbatimiz maroqli kechdi. Umid qilamizki, tumanimizning faol yoshlariga sizning harakat va tashabbuslaringiz o‘rnak bo‘ladi. Rahmat!

Mohidil BOBOJONOVA suhbatlashdi.

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

FUQAROLARGA MOLIYAVIY YENGILLIK



Fuqarolarning uy-joy va yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini e’tirof etish jarayonini yanada soddalashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 15-iyunda qabul qilingan O‘RQ–1153-son Qonuni bilan bir qator muhim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Mazkur o‘zgarishlar aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish, huquqlarni rasmiylashtirish jarayonlarini tezlashtirish hamda moliyaviy yengilliklar berishga qaratilgan.

Qonunning eng ahamiyatli yangiliklaridan biri — yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini e’tirof etish uchun belgilangan bir martalik to‘lovni qisqa muddatda amalga oshirgan fuqarolarga beriladigan imtiyozdir.

Yangi tartibga muvofiq, agar fuqaro yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqini e’tirof etish uchun hisoblangan bir martalik to‘lovning 50 foizini qonunda belgilangan 20 kunlik muddat ichida to‘lasa, qolgan 50 foizini to‘lashdan ozod etiladi. Bu fuqarolar uchun muhim moliyaviy yengillik bo‘lib, o‘z huquqlarini o‘z vaqtida rasmiylashtirishni rag‘batlantiradi.

Shuningdek, qonunga muvofiq, bir martalik to‘lovni bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ham yaratildi. To‘lovni bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish bo‘yicha shartnoma avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi.

Bu esa aholi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi. Mazkur imtiyozdan foydalanish uchun fuqarolarga belgilangan muddatlarga qat’iy rioya qilish tavsiya etiladi. Chunki 20 kunlik muddat ichida to‘lovning yarmini amalga oshirish orqali qolgan yarmini to‘lash majburiyati bekor qilinadi.

Qonun bilan kiritilgan mazkur yengilliklar fuqarolarning mulkiy huquqlarini qonuniy asosda rasmiylashtirishni rag‘batlantirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini yanada soddalashtirishga xizmat qiladi.

Ulug‘bek BOLTAYEV,
Bekobod tumani Adliya bo‘limi boshlig‘i



IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIDA YANGI YONDASHUV

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish hamda ushbu sohada yagona huquqiy mexanizmni belgilashga qaratilgan “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi O‘RQ–1159-son Qonun 2026-yil 23-iyulda qabul qilindi.

Yangi tizim ijtimoiy masalalarga profilaktik yondashuvga asoslangan. Shu maqsadda poliklinikalar, maktablar, bandlik markazlari, sudlar, ichki ishlar organlari va jazoni ijro etish muassasalarida professional ijtimoiy xodimlar instituti joriy etilmoqda.

Oilalar va alohida fuqarolarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtojlik darajasi faqat daromadlari asosida emas, balki ularning hayotiy vaziyatini kompleks baholash orqali aniqlanadi. Har bir fuqaro yoki oila uchun individual ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash rejasi ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi ushbu sohadagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Hujjatda Vazirlar Mahkamasi, ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari hamda mas’uliyati belgilangan. Shuningdek, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning ijtimoiy yordam ko‘rsatishdagi ishtiroki ham nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Qonunda ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam turlari, fuqarolar va oilalarni ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topish tartibi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish va uni to‘xtatish asoslari, moliyalashtirish manbalari, shuningdek, ijtimoiy xodimlarning huquqiy maqomi, ijtimoiy kafolatlari va faoliyatiga doir cheklovlar mustahkamlab qo‘yildi.

Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan bo‘lib, 2026-yil 23-iyuldan kuchga kirdi.

Ubaydulla MIRZAYEV,
Bekobod tumani Adliya bo‘limi DXM direktori, 1-darajali yurist

G‘O‘ZA PARVARISHI

BEKOBOD SHAROITIDA XITOY TEXNOLOGIYASI

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi va suv resurslarining kamayishi sharoitida qishloq xo‘jaligida innovatsion va tejamkor texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘ziga xos tuproq-iqlim sharoitiga ega Bekobod tumanida Xitoy (Shinjon) texnologiyasi asosida g‘o‘za yetishtirish tajribasi ham e’tiborga molik.

Mazkur texnologiya an’anaviy usullardan chigit ekish sxemasi, plyonka ostiga ekish hamda suv va boshqa resurslardan tejamkor foydalanish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Xitoy texnologiyasining muhim jihatlaridan biri yuqori hosildorlik uchun maqbul ko‘chat qalinligini ta’minlashdir. G‘o‘za plyonka ostiga qo‘shqatorli sxemada, jumladan, 76×10 santimetr yoki shunga yaqin sxemalarda ekiladi. An’anaviy usulda gektariga 80–110 ming tup nihol parvarish qilinsa, ushbu texnologiyada bu ko‘rsatkich 220–240 ming tupgacha yetkaziladi. Plyonka ostida issiqlik va namlikning saqlanishi hisobiga chigit 5–7 kun oldin unib chiqishi hamda nihollarning bir tekis rivojlanishi ta’minlanadi.

Bekobodning shamolli va yoz oylarida havo harorati yuqori bo‘ladigan hudud ekanini hisobga olsak, g‘o‘zaning suvga bo‘lgan ehtiyojini to‘g‘ri ta’minlash muhim. Ayniqsa, shonalash va gullash davrida o‘simlik namlikdan uzilmasligi kerak. Tomchilatib sug‘orish orqali suv va mineral o‘g‘itlarni bevosita ildiz tizimiga yetkazib, shu tariqa suv hamda o‘g‘itlardan samarali foydalanish mumkin.

G‘o‘zaning haddan tashqari bo‘yiga o‘sib ketishini cheklash va hosil elementlari shakllanishini yaxshilash maqsadida o‘sishni boshqaruvchi preparatlardan ham foydalaniladi. Ularni qo‘llash me’yorlari va muddatlari mutaxassis tavsiyasiga muvofiq belgilanadi. Tomchilatib sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan maydonlarda esa egatga suv tarash jarayonida mahalliy o‘g‘itlar bilan boyitilgan sharbat usulidan foydalanish mumkin.

Ko‘chatlar soni ko‘p bo‘lgan maydonlarda o‘simlikning ozuqa moddalariga bo‘lgan talabi ham ortadi. Shu sababli rivojlanishning muhim bosqichlarida tarkibida azot, fosfor, kaliy va bor kabi elementlar bo‘lgan kompleks organomineral o‘g‘itlarni barg orqali qo‘llash samarali hisoblanadi. Ayniqsa, gullash va ko‘sak hosil qilish davrida fosfor hamda kaliyli o‘g‘itlardan foydalanish ko‘saklarning yaxshi rivojlanishi va tolaning sifatli shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qalin ekilgan maydonlarda zararkunandalar va kasalliklarning tarqalish xavfi ham ortadi. Shu bois ko‘sak qurti, o‘rgimchakkana va shiralar paydo bo‘lishi muntazam nazorat qilinishi lozim. Zararkunandalarga qarshi, avvalo, biologik usullardan, jumladan, trixogramma va brakon kabi foydali entomofaglardan foydalanish maqsadga muvofiq. Zararkunandalar soni iqtisodiy zarar yetkazish chegarasidan oshgan taqdirda, tegishli kimyoviy himoya vositalari mutaxassis tavsiyasi asosida qo‘llanadi.

Bekobod tumanida Xitoy texnologiyasi asosida g‘o‘za parvarishlash tizimli yondashuv va qat’iy agrotexnik intizomni talab qiladi. Mazkur texnologiyani to‘g‘ri va ilmiy asosda qo‘llash natijasida suv resurslarini 30–40 foizgacha tejash, mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini 25–30 foizga oshirish hamda gektaridan 40–45 sentner va undan yuqori hosil olish imkoniyati yaratilishi qayd etilmoqda.

Fermer xo‘jaliklariga vegetatsiya davrida sug‘orish jadvallariga, oziqlantirish me’yorlariga hamda o‘sishni boshqaruvchi preparatlarni qo‘llash muddatlariga qat’iy rioya qilish tavsiya etiladi.

Sadir MAHKAMOV,
Murod AMANOV,
Husan DO‘SMATOV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi Fitosanitar nazorati davlat inspektorlari

O‘SIMLIKLAR HIMOYASI

SUDRALUVCHI KAKRA — XAVFLI BEGONA O‘T



Sudraluvchi kakra (Acroptilon repens (L.) D.C.) — Asteraceae oilasiga mansub, ko‘p yillik begona o‘t hisoblanadi. U qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi va sifatiga jiddiy zarar yetkazishi bilan xavflidir.

Sudraluvchi kakraning poyasi shoxlangan bo‘lib, balandligi 20–40 santimetrgacha yetadi. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, o‘q ildizli. O‘simlik may–iyun oylarida gullab, iyul oyida urug‘i pishib yetiladi.

Kakraning bir tupi 30–80 ming donagacha urug‘ hosil qilishi mumkin. U urug‘idan, ildiz bachkilari va ildiz-poyalari orqali ko‘payadi. Urug‘larining unuvchanligi 3–4 yilgacha saqlanadi. Shu sababli uning tarqalishini o‘z vaqtida cheklash muhim.

Sudraluvchi kakra yengil va og‘ir loyli tuproqlarda yaxshi o‘sadi, tuproq sho‘rlanishiga ham chidamli. Qurg‘oqchil iqlim sharoitida, yog‘ingarchilik miqdori yiliga 200–375 millimetrni tashkil etadigan yarim cho‘l hududlarida ham rivojlana oladi. Raqobatbardoshligi yuqori bo‘lgani sababli u fitotsenozda ko‘pincha dominantlik qiladi.

Mazkur begona o‘t ekinlarning hosildorligi va sifatini pasaytirib, yaylov va boshqa yerlarning mahsuldorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kakra urug‘i bilan ifloslangan don qayta ishlanganda mahsulotning ta’mi achchiqlashishi mumkin. O‘simlik tarkibida alkaloidlar mavjudligi sababli u bilan ifloslangan pichan chorva hayvonlari, ayniqsa, otlar uchun xavf tug‘diradi. Shuningdek, kakrali ozuqa sigir sutining ta’mini ham buzishi mumkin.

Sudraluvchi kakra tuproqdagi suv va unda erigan mineral moddalarni madaniy o‘simliklarga nisbatan ancha faol o‘zlashtiradi. Bundan tashqari, u boshqa o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini sekinlashtiruvchi moddalar ajratib chiqaradi. Shu bois kakra tarqalgan maydonlarda ekinlarning rivojlanishi qiyinlashadi.

Yangi va toza yerlarning sudraluvchi kakra bilan zararlanishining oldini olish uchun toza urug‘lik materiallaridan foydalanish, ularni begona o‘t urug‘laridan yaxshilab tozalash, dalalarga yaxshi chirigan go‘ng solish hamda karantin talablariga rioya qilish muhim. Beda, bug‘doy, arpa, suli va tariq kabi ekinlar urug‘i kakra urug‘lari bilan ifloslangan bo‘lishi mumkin. Shu bois ularni ekishdan oldin maxsus don tozalash mashinalari yordamida tozalash tavsiya etiladi.

Ishlov berilmaydigan yerlarda kakra o‘choqlarini muntazam o‘rib, uning gullashi va urug‘ hosil qilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Dalalarni ushbu begona o‘tdan tozalashda tuproqqa sifatli ishlov berish, almashlab ekish qoidalariga rioya qilish va ekinlarni o‘z vaqtida parvarishlash muhim. Sudraluvchi kakraga qarshi kurashdan asosiy maqsad uni bir marta yo‘qotish emas, balki urug‘lanishi va ildiz orqali ko‘payishining oldini olishdir. Buning uchun agrotexnik tadbirlarni muntazam amalga oshirish va karantin talablariga qat’iy rioya qilish zarur.

Faxriddin SHAKIROV,
Alisher AMANXO‘JAYEV,
Shohruh ESHBOYEV,
Farruh ASQAROV,
“Oybek” O‘KCHM inspektorlari

E’TIROF

DILNOZANING YULDUZLI KUNI

Hayotda o‘z o‘rnini topgan, mehnat bilan baxtga erishgan, ezgulikka intiluvchi insonlarning xoh yoshligida bo‘lsin, xoh kamolotga erishgan yillarida — yulduzli kunlari, o‘z kamolotining yuksak cho‘qqilariga ko‘tarilgan davrlari bo‘ladi. Ayrimlarga esa yulduzli kunlar kutilmaganda, birdan keladiki, bunday holatlarni xalqimiz “baxt qushi boshiga qo‘nibdi”, deya ta’riflaydi.

Bugungi hikoyamiz qahramoni Dilnoza Pirimqulovaning ham yulduzli kuni kutilmaganda keldi va uni butun respublikamizga tanitdi. Kechagina “O‘zmetkombinat” korxonasining Quyuv-prokatlash majmuasida ish boshlagan, kombinatda shijoati va intilishi bilan ajralib turgan yoshlarning vakilasi Dilnozaxonning “boshiga baxt qushi qo‘ndi”. U muhtaram Prezidentimiz bilan uchrashish, qolaversa, kombinat faollari bilan bo‘lib o‘tgan nufuzli yig‘ilishda so‘zga chiqib, davlatimiz rahbari bilan bevosita muloqot qilish baxtiga sazovor bo‘ldi.

Bu tarixiy uchrashuv haqida Dilnoza shunday hikoya qiladi:

— Hurmatli Prezidentimiz bilan bo‘ladigan yig‘ilishdan uch kun avval meni kombinat rahbariyati chaqirib, katta yig‘ilishda yoshlar nomidan



so‘zga chiqishimni aytishganda, avvaliga hayajonlandim. Keyinchalik bu uchrashuv Yurtboshimiz bilan muloqot tarzida o‘tishi, men o‘z ishim va orzularim haqida so‘zlashim kerakligini bilgach, hayajonimni bosib, qizg‘in tayyorgarlik ko‘rdim.

Prezidentimizning kombinat faollari bilan uchrashuvlarini ko‘rib, ma’ruzalarini tinglab, u kishining oddiy inson qatori, sodda tilda, samimiy muloqot qilishlaridan shunday ruhlandimki, so‘zga chiqqanimda hech qanday hayajon sezmadim, xuddi o‘z otam bilan muloqot qilayotgandek gapirdim. Qalbimni, vujudimni g‘ayritabiiy bir g‘urur, ulug‘vorlik qamrab olgandi. Ayniqsa, Yurtboshimiz menga otalarcha mehr va hurmat ko‘rsatib, Zulfiya nomidagi mukofotga sazovor bo‘lganimni e’lon qilganlarida, g‘urur ko‘z yoshlarimni zo‘rg‘a tutib turdim.

Bu tarixiy uchrashuv, tarixiy muloqot Dilnozaning haqiqiy yulduzli daqiqalari, yulduzli kuni edi! Boshiga baxt qushi qo‘ngan, ko‘ksini Zulfiya mukofoti bezagan kun edi.

Prezidentimiz bilan uchrashuvning ertasi kuni O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyeva va Toshkent viloyati hokimi Zoir Mirzayev ishtirokida Dilnoza Pirimqulovaga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti tantanali ravishda topshirildi. Bekobodning metallurglar oilasidan chiqqan shoira qizimiz Yurtboshimiz nazariga tushdi, mamlakatga tanildi. Eng muhimi, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari safida dadil odimlayotgan yoshlarimizning yetakchilari qatorida o‘z o‘rnini topdi.

Dilnozaxon haqidagi maqolamizni uning Yurtboshimiz e’tirofiga sazovor qilgan va shoira sifatida elga tanitgan “Metallurglar” she’ri bilan yakunlaymiz.

METALLURGLAR

Olov bilan tillashar qo‘lim,
Ta’mirga jon beramiz har kun.
Xizmatdamiz, qad rostlayotgan,
Har bir bino, inshoot uchun.
Yangilanib borar shaharlar,
Yangilanib borar bo‘stonim.
Temirdayin mustahkam, mag‘rur,
Gullayversin O‘zbekistonim.
Metallurglar olov farzandi,
Matonati, kuchi, orida,
Mening ham o‘z hissam bor,
Shu Vatanning poydevorida!

Nurali JALIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

DOLZARB MAVZU

KIBERPROFILAKTIKA — KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING ENG SAMARALI YO‘LI

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib borayotgan bugungi kunda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shu bilan birga, kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlar soni va ularning murakkabligi ham ortib bormoqda. Fuqarolarni aldashga qaratilgan yangi usullar, soxta internet resurslari, zararli dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali firibgarlik, onlayn savdo va investitsiya niqobi ostidagi noqonuniy sxemalar tobora ko‘paymoqda.

Bugungi kunda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor faoliyati yetarli emas. Eng muhim vazifa — jinoyat sodir etilishidan oldin uning oldini olish, ya’ni kiberprofilaktika tizimini yanada takomillashtirishdir. Chunki har bir oldi olingan kiberjinoyat — fuqarolarning saqlab qolingan mol-mulki, himoyalangan shaxsiy ma’lumotlari va mustahkamlangan ishonchidir.

Kiberprofilaktika — bu fuqarolarning kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni zamonaviy tahdidlardan ogohlantirish hamda xavfsiz raqamli muhitni shakllantirishga qaratilgan tizimli profilaktik chora-tadbirlar majmuidir. Ushbu faoliyat doirasida aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib boriladi, ta’lim muassasalari, davlat idoralari, korxona va tashkilotlarda targ‘ibot tadbirlari tashkil etiladi, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy ravishda ogohlantiruvchi materiallar e’lon qilinadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat kiberjinoyatlar fuqarolarning e’tiborsizligi yoki yetarli raqamli savodxonlikka ega emasligi oqibatida sodir bo‘lmoqda. Noma’lum manbalardan yuborilgan havolalarni ochish, zararli APK fayllarni yuklab olish, telefon orqali bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxslarga ishonish, bank kartasi rekvizitlari va tasdiqlash kodlarini begonalarga taqdim etish kabi holatlar firibgarlar tomonidan eng ko‘p qo‘llanilayotgan usullar hisoblanadi.

Shu bois kiberprofilaktika ishlari aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi lozim. Ayniqsa, yoshlar, keksalar, tadbirkorlar, davlat xizmatchilari hamda moliyaviy xizmatlardan faol foydalanuvchi fuqarolar bilan manzilli ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish oiladan boshlanib, ta’lim muassasalari, mahalla va mehnat jamoalarida uzviy davom ettirilishi zarur.

Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari ham kiberprofilaktika tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy raqamli platformalar orqali fuqarolar shubhali havolalarni tekshirish, firibgarlik alomatlarini aniqlash, kiberxavfsizlik bo‘yicha tezkor tavsiyalar olish va interaktiv ta’lim modullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa profilaktik ishlarning samaradorligini oshirish bilan birga, kiberxavfsizlik madaniyatini keng ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va har bir fuqaroning hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Zero, kibermakondagi tahdidlar chegara tanlamaydi. Ularga qarshi eng samarali himoya esa zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda, yuksak raqamli savodxonlik va fuqarolarning mas’uliyatli xulq-atvoridir.

Har bir fuqaro quyidagi oddiy, ammo muhim qoidalarga qat’iy amal qilishi tavsiya etiladi:

- noma’lum havolalar va fayllarni ochmaslik;
- bank kartasi rekvizitlari, PIN-kod, CVV-kod hamda SMS tasdiqlash kodlarini hech kimga bermaslik;
- faqat rasmiy ilovalar va ishonchli internet manbalaridan foydalanish;
- murakkab va noyob parollardan foydalanish hamda ikki bosqichli himoyani faollashtirish;
- shubhali holatlarga duch kelganda zudlik bilan tegishli tashkilotlarga murojaat qilish.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash — bu faqat mutaxassislarning emas, balki jamiyatning har bir a’zosining mas’uliyatidir. Raqamli makonda hushyorlik, ehtiyotkorlik va bilimli yondashuvni shakllantirish orqali kiberjinoyatlar oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.



Unutmang: kiberjinoyatchilar texnologiyadan foydalanadi, ammo ularning eng asosiy nishoni — insonning ishonchi va e’tiborsizligidir. Shuning uchun kiberprofilaktika bugungi kunning dolzarb vazifasi, raqamli xavfsizlik esa har bir fuqaroning kundalik hayot madaniyatining ajralmas qismi bo‘lishi zarur.

Diyorbek ABDURASHIDOV,
Toshkent viloyati Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi Uchinchi tumanlararo bo‘linmasi Kiberprofilaktika guruhi inspektori, leytenant

Tuman ijodkorlari ijodidan

Abdi Samad (Jumaboyev Abdisamat) 1951-yilda Toshkent viloyati Bekobod tumanida tug‘ilgan. 1977-yilda Toshkent qishloq xo‘jaligi institutini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Uzoq yillar davomida qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritib, rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Adabiyotga, ayniqsa, o‘zbek mumtoz adabiyotiga hamisha katta qiziqish bilan qaragan.

Yoshligidan tarixiy romanlarni, jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Mirkarim Osimning “So‘g‘diyona”, Lion Fextenvangerning “Soxta Neron” asarlarini sevib mutolaa qilgan.

Uning “Hayot o‘yini”, “Ko‘ngil mavjlari”, “Sog‘inib yashayman yaqin-yiroqni” va “Tanho, deb suyganim — muqaddas Vatan!” nomli kitoblari nashr etilgan.



VATAN MADHI

Nima deb ta’riflay aziz Vatanni,
Sha’niga ne zotlar bitgandir ash’or.
Fido qilsa arzir jon bilan tanni,
Sog‘inchidan ortiq qanday tuyg‘u bor.

Manzili – cho‘l-sahro birov nazdida,
Hech narsa unmaydi – qup-quruq yantoq.
Shiroqning Vatani edi aslida,
Mana shu qumliklar, mana shu tuproq.

Inson hayotini bir chaqa ko‘rmay,
Yurtni talaganda yovuz Chingizxon.
Shu yurt deb jon berib piri Kubroday,
Shahid ketdi qancha mard-u pahlavon.

Jahon tan beradi bobom Sinoga,
Tibbiyot ilmida benazir, tugal.
Beruniy ishonib aql-u zakoga,
Amerikani ko‘rdi hammadan avval.

Qurgan binosiga berib ko‘rk va zeb,
Dunyoni zabt etdi va qildi obod.
Qutqargan balodan bizni Temur deb,
Minnatdor o‘lkalar hamon qilar yod.

Navoiy sultonning o‘tli g‘azali,
Olamda go‘zal deb qilinganda qayd.
Ko‘pchilik o‘rmonda yurgan mahali,
Bobom “Xamsa”siga bitgan edi bayt.

Boburning sog‘inchin aylaymu bayon,
Vatanni bir ko‘rish bo‘ldi armoni.
Furqatning firog‘i hammaga ayon,
Musofir bo‘lib tark etdi dunyoni.

Yulduzlar maftuni, o‘y-fikri fazo,
Shaydo qalb yaratdi “Ziji Ko‘ragon”.
Shahid bir olimning ruhiga hatto,
Bag‘ridan joy berdi, bepoyon osmon.

Luvr, Eyfelga, qilmayman havas
Atiqa hisoblashar kechagi kunni.
Ming yillik minorlar haybati abas,
Hayratga solmoqda butun ochunni.

Nazm gulzoridan gul tergan bisyor,
Sendek kuylamagan yuragin ochib.
Afsus, Muhammad Yusuf, kelmaydi takror,
Ruhlari samoni, falakni quchib.

Mana shu muqaddas, tabarruk maskan,
Barchamizga aziz shu ona tuproq.
Mustaqil diyorim gulzor-u, chaman,
Bizniki har giyoh, har bitta yaproq.

Yurakdan kuylayman Vatan madhini,
Sharaflab nomini gullarga o‘rab.
Senga muhabbatim, senga sevgimni,
Qarzga olmaganman – birovdan so‘rab.

MIRZO BOBUR

Bolaligin ko‘rmay – o‘n ikki yoshda,
Qilich taqdi taqdir Bobur beliga.
Ne savdolar soldi bu falak boshga,
Mehmonday yashadi o‘zin elida.

Madadkor izladi alamga to‘lib,
Dardli yuragiga topmadi hamdam.
Musofir yurakning hamrohi bo‘lib,
Taskin bo‘ldi faqat qo‘lida qalam.

Kimsa nigohida u podshoh edi,
Muzaffar zot bo‘ldi, qilib tavakkal.
Ulusni ardoqlab, boshin siladi,
Qalam tutgan qo‘llar shamshirdan avval.

Podshohmas, mirzo deb tanidi jahon,
Hindiston bo‘lsa ham uning izmida.
Baridan voz kechib topsaydi imkon,
Alishardi pishgan qovun hidiga.

Umrini o‘tkazdi yurtning sog‘inchin,
Dardini g‘azal-la dunyoga aytib.
Shoirmas, balki shoh bo‘lgani uchun,
Afsus, kelolmadi Vatanga qaytib!

SHE’RNING TUG‘ILISHI

Chaqinday chaqnadi oniy bir hayol,
Tafakkur bahrining puchmoqlarida.
Hayolchan entikdim aftoda bir hol,
Erka u ilhomning quchoqlarida.

Vujudim qamradi tug‘yon, ehtiros,
Ko‘ksimda titradi bezovta yurak.
“Qalamga ayt”, – dedi ichki bir ovoz –
U bilan dardlashgin ne bo‘lsa kerak”.

Ne murod istadim o‘zim ham bilmay,
Qalbimga bandiday qilmay e’tiroz.
Borliqni bir boshdan sayr etdim tinmay,
So‘z izlab tuyg‘ular, hayollarga mos.

Necha bor o‘chirib, yozdim necha bor,
To‘zg‘igan o‘ylarga topguncha tartib.
Bir yo‘ldan men o‘tdim ming bora takror,
To‘lqinli hislarning yukini ortib.

Meni ravo ko‘rgan azobli rohat,
Ilhomning farzandi – she’r ekan bilsam.
Ruhimga zavq bergan rohatbaxsh holat,
Tark etma ko‘ngilni gar tirik bo‘lsam.

BARCHA AYOLLARGA

Chehrangni to‘lin oy chizdi musavvir,
Alifga o‘xshatdi qomating xattot.
Tashbihing topmadik izlab baribir
Senga go‘zallikdan boshqa narsa yot.

Atirgul qizardi yuzingni ko‘rib,
Tunga ta’rif bo‘ldi qayrilma bu qosh.
Seni o‘z ishqining timsoli qilib,
Farishta yaratgan azaliy naqqosh.

Seni yulduzlarga qiyoslab doim,
Ismlar qo‘yganmiz samodan olib.
Zuhro, Cho‘lpon, Yulduz, Mushtariy xonim,
Deganmiz Muhtaram tabarruk bilib.

Kimlar malak dedi, kim esa pari,
Sensan – shoir surgan eng go‘zal xayol.
Inson zoti paydo bo‘lgandan beri,
Hayotning timsoli o‘zingsan ayol.

MEN BILGAN DUNYO

Bu hayot to‘fondir – kechmas kurashsiz,
Kimning qo‘li baland – bilmadik hargiz,
G‘irromlar g‘olib-u, mard qolsa ojiz,
Alamdan ko‘zi nam ko‘rdim dunyoni.

Qo‘llari mehnatdan bo‘shamas birdam,
Dehqonim doimo yaxshiga hamdam,
Ammo so‘zin bermas birovga hecham,
Mag‘rur, tanti, bardam ko‘rdim dunyoni.

Kimsada mol-davlat, hamma narsa bor,
Bir zumda muhayyo – ne qilsa qaror,
Lek yashab o‘tmoqda bir tirnoqqa zor,
A’zaldan biri kam ko‘rdim dunyoni.

Kimdir kutib yashar omaddan tortiq,
Kimga davlat bergan – uniki borliq,
Muhtojga uzatgan qo‘llari ochiq,
Saxovatda Hotam ko‘rdim dunyoni.

Rost so‘zga ko‘pchilik ishonmay tursa,
Kazzob yolg‘onini chin deb lof ursa,
Uydirma tarqatib, elda g‘oz yursa,
Haqgo‘yning boshi xam ko‘rdim dunyoni.

Olamni suv bossa, to‘piqqa kelmas,
Dunyoning tashvishi uniki emas,
Jigarin dardini meniki demas,
Beparvo va beg‘am ko‘rdim dunyoni.

Nohaq so‘z qalbingga yetkazsa ozor,
Keng dunyo ko‘zingga bo‘lib ketsa tor,
Jim turib, mum tishlab, boshing egib xor,
Tursang, singan qalam ko‘rdim dunyoni.

Bezovta qalqiydi bu ko‘hna olam,
Bir-birin mahv etar farzandi Odam,
O‘zin inson sanar odamkushlar ham,
Ko‘zda yosh, dilda g‘am ko‘rdim dunyoni.

Oddiy odamdirsan, balki amaldor,
Yo olam tanigan fazogir – shunqor,
Yumushingdan chalg‘ib, aqalli bir bor,
Ko‘zim bilan sen ham ko‘rgin dunyoni.

YURAGIMDAN KECHGAN XAYOLLAR

Bizlardan bir og‘iz ruxsat so‘ramay,
Tizginsiz tulporday o‘tmoqda yillar.
Ba’zi kuni unday, ba’zida bunday,
Ortimizda qolgan hayotiy yo‘llar.

Umrdan o‘tdi deya topganda fursat,
Yirtib ham qo‘yamiz taqvimdan varaq.
Go‘yo hisobsizday o‘tsa har muddat,
Turmush tashvishiga bo‘lib mushtarak.

Kecha dasturxonda, taom ustida,
Falonchini rosa biz qildik g‘iybat.
U ham bizday yashar osmon ostida,
Boyaqish aslida bizlarga ulfat.

U kuni kimningdir og‘ritdik dilin,
Nojo‘ya so‘z bilan o‘zimiz bilmay.
Talashmasak hamki dunyoning molin,
Ozor berdik uni nazarga ilmay.

Ustozing ko‘rding-u, borib izidan,
Uni hurmat ila aylading tavof.
Bir mushfiq ko‘ngilning duosi bilan,
Ustingga yog‘ildi osmondan savob.

Tosh tekkan, egilgan bir faqir boshni,
Hamdardlik bildirib, siylab silading.
To‘xtatib ko‘zidan duv oqqan yoshni,
Go‘yo neki ne’mat bor, uni siylading.

Hayot shunday o‘tar – ba’zida yomon,
Ba’zida yaxshini esingga solib.
Yaxshilar qalblarda yashaydi hamon,
Yomonlar xotirdan ketar yo‘qolib.

Sendan ne qoladi bo‘lib xotira,
Yaxshilar qatorida bormisan sen ham?
Savobni kasb qilsang – o‘ylanma sira,
Seni aziz qilar bu ko‘hna olam.

Yaxshini ko‘tardim yalovday qilib,
O‘zingga havola puchak-saragi.
O‘tgan kunlarimning mazmuni bo‘lib,
Qolmasa bo‘lgani taqvim varag‘i.

Taqriz

KETRIN PATERSON – TERABITIYA KO‘PRIGI

1974-yilda AQSHning Merilend shtatida falokat yuz beradi. Muallifning o‘g‘li Devid o‘rtog‘i Liza Xill bilan o‘ynab yurganida 8 yoshli qizcha chaqmoq urishi oqibatida halok bo‘ladi va ana shu dahshatli voqea keyinchalik Ketrin Patersonga mashhur asarini yozishiga turtki beradi.

“Terabitiya ko‘prigi” bu bolalikdan o‘smirlikka o‘tish, orzular va xayollar, go‘zal bolalik xotiralari hamda kattalar hayotiga qadam qo‘yish oldidan paydo bo‘ladigan ilk ruhiy zarbalar haqidagi asar. “Narniya”ning ta’sirida yozilgan bu kitob ham quvnoq, ham hazin, samimiy va do‘stona ruhda yozilgani bilan o‘qishlidir.

Ketrin Paterson bu kitobda bolalarga tepadan emas, balki o‘z tengdoshlaridek murojaat qiladi. Bolalar uchun yozilgan eng yaxshi kitoblarning boshqa o‘rta-miyona kitoblardan farqi ham shunda: unda yaxshi yozuvchi o‘z o‘quvchilarini aqlsiz va ahmoq deb hisoblamaydi.

Ha, bolalar ba’zan nodon, shafqatsiz yoki sabrsiz bo‘lishlari mumkin. Ammo kattalar ham ulardan farq qilmaydi aslida. Bu esa asarni haddan tashqari soddalashtirish, har bir jumlani maydalab tushuntirish yoki “ruhiyatga yomon ta’sir qilishi mumkin” degan bahona bilan hayot haqiqatini yashirish kerak degani emas.

Shu paytgacha dunyoda nechta odam tug‘ilgan bo‘lsa, hammasining bolalikda o‘z “dunyo”si bo‘lganiga ishonaman. O‘zim ham maktabga borgunimga qadar, o‘zim yaratgan “fantastik” olamni boshqarganman, qahramonlarining rasmini chizganman, ular bilan do‘st bo‘lganman. Lekin, ular olis bolalikda qolib ketdi... Ba’zi yozuvchilar esa ana shu dunyolarini adabiyotga olib kirishga urinib, ko‘p hollarda muvaffaqiyatga erishadilar. Va ularning aksariyati oxiri yaxshilik bilan tugaydigan ertaklar bo‘ladi. Biroq, “Terabitiya” o‘sha ertaklardan sal kattaygan, bolalik va o‘smirlik chegarasiga kelib qolgan “ko‘prik”dir! (Asar oxirida yigitcha o‘sha ko‘prikni qurib ustidan o‘tishi ham ko‘p ma’noga ega)


“Terabitiya ko‘prigi”ni boshqa sehrli mamlakatlar haqidagi kitoblardan ajratib turadigan jihat shuki, bu yerdagi Terabitiya haqiqiy emas. U bolalar o‘yinining bir qismi, tasavvur mahsuli, xayol orqali yaratilgan dunyosidir. Eng muhimi, bolalarning o‘zi ham buni yaxshi tushunadi. Ular bu yerda hech qanday haqiqiy sehr yoki mo‘jiza yo‘qligini biladilar. Bu juda muhim nuqta. Terabitiya voqealar uchun oddiy fon emas, balki real hayotning bir bo‘lagidir. Ha, u haqiqatga qarshi qo‘yilgan, lekin unga zid ham kelmaydi. Aniqroq aytsak, bolalar uchun yozilgan ko‘plab asarlardagi kabi voqelikdan qochish vositasi emas. Aksincha, asar insonga haqiqatdan qochmaslikni, balki uni o‘zgartirish mumkinligini anglatadi.

Asar qahramonlari va muhiti haqida nima deyish mumkin. 1970-yillardagi Amerikaning oddiy serfarzand oilasi. Unda doimgidek ishsiz ota, uy ishlariga ko‘milib yuradigan jonkuyar ona va ko‘plab singillarga ega yigitcha bo‘ladi. Ko‘pgina eski gollivud filmlarida AQSH maktablarini ko‘rgan bo‘lsangiz, bu asarda ham o‘sha manzaralarga duch kelasiz.

Asar syujeti kerakli darajada yaxshi qurilgan: o‘quvchini charchatmaydi va qissaning oxirigacha qiziqishni saqlab turadi. Hajmi ham katta emas. Atigi bir yuz ellik sahifa ichiga sig‘dirilgan katta olam.

Bunday kitoblarni o‘qiganda hatto ko‘p kitob o‘qigan katta yoshdagi insonlar ham o‘z qalbining qayeridandir bolalikdagi “ikkinchi men”ini topgisi keladi. Ana shu ichki bola asarning butun go‘zalligini his qilishga yordam beradi.

Yakunda, 2007-yilgi filmni tomosha qilganlar uchun bir necha so‘z aytay. Agar film sizga yoqmagan bo‘lsa, kitobni o‘qish shart emas. Ammo filmdan zavq olgan bo‘lsangiz, kitobni, albatta,



o‘qing. Film hatto ba’zi joylari o‘rinli tarzda boyitilib asarga juda yaqin qilib ishlangan. Biroq kitobda ekranga chiqmagan ko‘plab qiziq tafsilotlar mavjud. Shuningdek, Patersonning uslubi birinchi va ikkinchi darajali qahramonlarning xarakterini yanada chuqurroq ochib beradi. Ular shunchalik jonli va yoqimliki, ko‘pchilik bolaligida Lesli va Jess singari do‘stlarga ega bo‘lishni orzu qilgan bo‘lardi, menimcha...

Munisa A’ZAMOVA

“UZRNOMA”

Har oyda kamida bitta kitobni o‘qib tugatishni reja qilganman. Bu oy chekimga Xumayro Xalilning “Uzrnoma”si chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlarda kitob haqidagi videoroliklarni ko‘rib juda qiziqdim va mutolaaga kirishdim.

To‘g‘risi, boshida juda sodda, pastroq saviyada yozilgandek tuyuldi. Jumlalar qisqa, badiiylik kam, shirasi oz edi. Ammo 15-16-sahifalarni yakunlar ekanman, angladimki: bo‘yoqdor jumlalarsiz ham kitobxonni ta’sirlantirish mumkin ekan. Asar tamoman haqiqatdan sodir bo‘lgan voqealar asosida yozilgani va personajlarning birortasi ham to‘qima emasligi e’tiborimni tortdi.

Ba’zi sabablarga ko‘ra, kitobni 5 kun deganda arang nihoyasiga yetkazdim. Asarga qo‘shilib minglab insonlarning umri ham bitdi. Kimdir hayot lazzatini totishga ulgurgan katta kishilar bo‘lsa, kimdir hali beg‘uborlik tark etmagan murg‘ak qalb egalari edi. Yaratgan bandalarini goh to‘kis rizq, gohida sabr qilishga majbur qiladigan ne’matsizlik bilan sinarkan. Ayovsiz janglar markazida qolgan G‘azo aholisining sinovi esa zolimlar zulmiga chidab, ochlik va boshpanasizlikka qanoat qilish bilan kechdi. Sionistlar hujumidan so‘ng minglab onalar farzandlarining jasadlarini axtardi, yana minglabi ularning qoldiqlarinigina topishga erishdi, kim biladi yana qanchasi bir jigarporasini tashlab, boshqasini qutqarishga majbur bo‘ldi.

Bosh obraz sifatida tanlangan Yahyo o‘zi kichik bola bo‘lishiga qaramay, portlash natijasida onasidan judo bo‘ladi. Ammo bu kulfat u kabi ko‘plab bolalarning boshiga tushgandi. Shu vaziyatda u alam chekib o‘tirish foydasizligini anglaydi va harakatga tushadi. Bir telefon topib, amallab quvvatlantiradi. Bir paytlar ko‘zlari quvonchdan porlagan bolalar ulg‘aygan fayzli uylarning xarobaga aylangan qoldiqlarini, ochlikdan eti ustixoniga yopishgan, turli kasalliklar va sillasizlikdan madori qurigan yetimlarni, yaqinlarini yo‘qotib telbaga aylanayotgan insonlarni suratga olib ijtimoiy tarmoqqa joylaydi. Shu tariqa butun olamdan ko‘mak istaydi. Ammo urush bo‘layotgan maydonga jonidan kechib boradigan mardlarni topish oson emasdi, topilganda ham chegaradan o‘tish, sanoqsiz jangarilar hujumidan omon qolib mazlumlar yoniga yetib borish ham mushkul edi. Shuncha qiyinchiliklarga qaramay, uzoq kutuvlardan so‘ng vanihoyat yordam kuchlari ham keladi. Shifokorlar, jurnalistlar, oziq-ovqat ta’minotchilari va bir qator ko‘ngillilar yordamida aholiga iloji boricha ko‘mak beriladi. Och qolgan bolalar qaynoq ovqatlarni to‘kib yuborishar, tanalari kuyganini ham his qilmay taomlari uchun kuyinishardi.

Yordamga kelganlar orasida oziq-ovat yetmay qolishidan qo‘rqib bir luqma ham og‘ziga olmaganlar bo‘ldi. Yahyoning e’tiborini hammadan ham ko‘proq egnida “Press” yozuvi tushirilgan kiyimdagi qat’iyatli va irodali, jasur jurnalist Solih tortdi. U hammaga yordam berishga oshiqib, hatto bomba portlayotgan vaqtda ham bolalarni asrab qolish uchun yugurib yurardi. Shifoxonada sodir bo‘lgan portlash natijasida elektr toki o‘chganda ham hamshiralar qatorida chaqaloqlar hayotini qutqarishga intildi. Yahyo har gal unga havas bilan boqardi va u kabi matonatli jurnalist bo‘lishga oshiqardi. Bunday fidokor jurnalistlar ko‘p emasdi, ammo bor edi. Asarda nomi tilga olingan Voil Dahduh, Maryam Daggalar o‘z jonini, hatto oilasi xavfsizligini ham dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni insonlarga ko‘rsatib, “ko‘zingizni oching, tinchlik uchun intiling” deyish uchun tikkandi. Bu bobni o‘qib angladimki, jurnalist bo‘lish uchun nafaqat yaxshi gapirish, mazmunli yozish, balki vaqti kelganda jasur yurak, sof vijdon va favqulodda qarorlar qabul qilib ish ko‘rish lozim ekan. Solih bir necha marta ijtimoiy sahifalari bloklanishiga qaramay yana parokandalik holatlarni suratga olib ijtimoiy tarmoqqa joyladi. Dunyodan G‘azo tomonga qo‘l cho‘zishlarini istadi. Javob kelavermagach chegara tomon yurish, hujumlarga tik boqib bu do‘zax azobidan qutulishni taklif qildi. Ammo uning fikriga qarshi borganlar bo‘ldi, chunki bu o‘lim tomon o‘zini otish edi. Qahramonimiz esa zolimlar qo‘lida behudaga jon berishni kutgandan ko‘ra ozodlikka tomon intilish to‘g‘riligini uqtirdi. Natijada, ular chegara tomon yo‘lga chiqishadi. Yo‘lda turli hujumlarga uchrashadi, qurbonlar ham bo‘ladi. Tanklar hujumiga uchragan bir oila butunlay halok bo‘ladi, faqatgina 5 yoshli Hind Rajab omon qoladi. Telefonda Qizil yarim oy jamiyatiga qo‘ngiroq qilib yordam jo‘natishlarini so‘raydi. Yordam yetib kelganda esa sionistlar yordamga kelgan shifokorlarni ham, qizchani ham portlatib yuborishadi. Jaholatning quroli zulm, nishoni mazlumga aylanadi.

Hujumlardan omon qolganlar manzilga yetishganda, joy cheklangani, faqatgina 100 kishini olib ketish imkoni mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Asosiy qismi bolalardan tashkil topgan samolyot havoga ko‘tariladi. Chang-to‘zonlarga yuzlashaverib tuproqqa to‘lgan ko‘zlar tiniq osmon, pardek bulutlar bilan qarshilashadi. Xarobalar o‘rniga ko‘kka bo‘y cho‘zgan binolar, ona zaminni bag‘riga bosgan maysalar, tinchlikdan bahra olib erkin sayrayotgan qushlar, xotirjam va sokin hayot kechirayotgan insonlar... Bularning bari oz muddat oldin ular uchun orzu edi. Endi esa mehrli qo‘llar yordami bilan orzular haqiqatga evriladi. Samolyotdan tushgach shifokorlar, muruvvatli insonlar ularga mehr ko‘rsatishadi. Issiq taomlar, toza kiyimlar, xavfsiz boshpanaga erishgach cheksiz rahmatlar yog‘dirishadi. Ammo ichlarida bir kemtik bor edi. Bu yerga yetib kelolmagan jabrdiydalarning, sovuqdan qotgan, ochlikdan halok bo‘lgan yaqinlarining xotirasi yutilgan har luqmani bo‘g‘zilariga tiqiltiradi. Ammo nachora, bu taqdir – kimningdir zavolga yuz tutishi boshqa bir insonning kamolga erishishiga sababchi bo‘ladi.

Tinchlik nafasi ufurgan, erkin fikrlaydigan, erkin yashaydigan yurt bilan yuzlashgan vatansizlar bu jannatmakon yurtning nomini so‘rashadi. Kamtarona “O‘zbekiston” javobini olishgach ko‘zlarida yosh bilan minnatdorchilik bildirishadi. Shu o‘rinda, dunyo mamlakatlari siyosiy jarayonlarga aralashmaslik uchun bir chetda kuzatishni afzal ko‘rgan bir davrda, insoniylikning, musulmonlikning oliy namunasiga guvoh qilgani uchun ona xalqimga, prezidentimga tashakkur aytaman. Ikkinchi Jahon urushi yillarida ham minglab qarovsiz bolalarga uyidan, qalbidan joy bergan o‘zbegim G‘azo yetimlarini ham bag‘riga oldi, qo‘lidan tutdi.

Aytgancha, sizga Yahyo va Solihning keyingi hayoti qanday kechgani qiziqmi? Ular ham samolyotda edilarmi yoki G‘azoda qolishdimi? Yahyo orzu qilgan kasbiga erishdimi? Bu savollarning javobini kitobni o‘qib bilib olishingiz mumkin.

Mohidil BOBOJONOVA

Tarmoqlarda nima gap?

ALIFBOMIZ ISLOHGA MUHTOJMIDI?

Alifbo islohidan tashvishlanayotgan va bu takliflarni to‘g‘ri qaror deb hisoblamaydigan yurtdoshlarimiz kam emas. Lekin avvaldan noqulay, xatolari ko‘p alifboni qo‘llashda davom etish, alifbo osonlikcha yozilmagani, bexato yozishga mos bo‘lmagani uchun xato yozuvlarni qabul qilishda davom etaverish ham yana no o‘rin. Nihoyat, ko‘p millatdoshlarimiz qo‘llay olmayotgan, maktablardagina qoidalar bo‘yicha yozilib o‘rgatilayotgan, texnika tanimaydigan, tan olmaydigan, husnixatda ham ko‘plab to‘xtamlar sababli xatolar ziyod kelib chiqadigan, haqiqiy noshirlarning haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgan alifboga isloh kiritilmoqda.

O‘zgarishlardan qo‘rqmaslik kerak. Isloh savodlilarni savodsiz qilib qo‘ymaydi, aksincha, hushyor torttiradi. Kelajakda bu islohdan katta natijalar ko‘riladi. Biz yaqin 10-20 yilni emas, ming yillarni o‘ylashimiz, hisobga olishimiz zarur.

Alifbo faqat maktabda savod chiqarish uchungina darkor bo‘ladigan belgilar yig‘indisi emas. U insonning butun umri davomida bilim olishi, fikrini ravon ifodalashi va zamonaviy axborot makonida erkin faoliyat yuritishi uchun ham xizmat qiladi. Davlat qiyofasini belgilaydi, unga oid barcha ma’lumotlarni qayd etishda zarur bo‘ladi.

Yozuv takomillashsa, millionlagan manbalar kelajak avlodga bexato va qulay ko‘rinishda yetib boradi. Har bir harfning aniq va qulay bo‘lishi kitob mutolaa qilishni, hujjatlar bilan ishlashni, kompyuter va mobil qurilmalarda matn terishni yengillashtiradi. Shuningdek, izchil alifbo elektron qidiruv tizimlari, sun’iy intellekt, tarjima dasturlari va xalqaro axborot almashinuvida xatolarni kamaytiradi. Umuman, alifbo nafaqat ta’lim vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, madaniyat va jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim poydevordir.

Islohning asosiy maqsadi ham alifboni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va yozishni soddalashtirishdir.

Muhokama qilinayotgan 4 ta harfni yozishda ko‘p xatolar yuzaga kelardi.

“Sh” va “Ch” ikki harfdan iborat. Kompyuter uni ikki alohida belgi deb qabul qiladi. Alifbo tartibida muammolar tug‘iladi. Qisqartma va kodlashda noqulay. Yangi ko‘rinishda bir tovush – bitta harf tamoyiliga mos keladi. Afzalligi – yozish qisqaradi, alifbo izchil bo‘ladi, kompyuter qayta ishlashi, lug‘at tuzish osonlashadi, pasport va xalqaro bazalarda xato kamayadi.


Bugungi “O‘” harfi aslida ikki belgidan iborat: “O + ‘”. Bu apostrofning o‘zi ham bir xil emas. Internetda: ‘, ’, ', ' kabi turli belgilar ishlatiladi. Masalan, “O‘zbekiston” quyidagicha yozilib kelmoqda: O‘zbekiston, O’zbekiston, O'zbekiston, O'zbekiston va hokazo. Qidiruv tizimi bularni har doim ham bir xil deb qabul qilmaydi. Yangi ko‘rinish: Ōzbekiston. Afzalligi: apostrof yo‘qoladi, telefon klaviaturasida qulayroq, qidiruv tizimlari yaxshi ishlaydi, domen nomlari va elektron pochta yozishda xatolar kamayadi. G‘ ham xuddi O‘ kabi.

Ng harf-birikmasi ham mamlakatimizning barcha hududlarida mavjud emas. Bir harf alifbomiz qatoridan joy olishi uchun u bilan so‘zlar boshlanishi kerak. “Ng”ni talaffuz qiluvchilarning ko‘pchiligi bu birikmani “menga, senga” kabi so‘zlar tarkibida ham mavjud deb biladilar.

Islohga umumiy sabablardan biri, bugungi kunda sun’iy intellekt, qidiruv tizimlari, tarjimon dasturlar, elektron hukumat, ma’lumotlar bazalari – barchasi yagona belgilar bilan ishlashni afzal ko‘radi. Turk, ozarbayjon, turkman va boshqa ayrim turkiy tillar lotin yozuvida diakritik belgili (masalan Ş, Ç, Ğ) harflardan foydalanadi.

Alifbomizdagi eng noqulay va o‘zaro yozuvlarimizning katta qismida qo‘llanmayotgan belgi – bu aynan apostrofdir. Masalan, fayl nomlarida, internet manzillarida, dasturlashda, ma’lumotlar bazalarida, elektron hujjatlarda apostrof ko‘p hollarda noto‘g‘ri ishlaydi yoki umuman qabul qilinmaydi. Shuning uchun yagona harf qo‘llash texnik jihatdan qulayroq hisoblanadi.

Agar bu o‘zgarishlar to‘liq joriy etilsa, savod chiqarish va alifbo tartibi izchilroq bo‘ladi. Lotin yozuvidan foydalanadigan boshqa turkiy tillar tajribasiga yaqinlashiladi. Yangi darsliklar va hujjatlarni moslashtirish xarajatsiz bo‘lishi uchun darsliklar, hujjatlar faqat yangilash muddati kelgandagina islohdagi alifboga o‘tkaziladi, ya’ni o‘zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.



Hammasi puxta o‘ylangan. Mutaxassislar shu shaklda yaxshi bo‘lishini aytdilarmi, ularga ishonish kerak. Chunki ular butun millatimizga yaxshi bo‘lishini o‘ylaganlar. Shu kundagi 30-40 yillik avlod bir ozgina qiynalsa ham, 4 ta harfni qayta o‘rgansa ham, undan keyingi uzoq yillarga munosib alifbo uzatilgani ma’qul.

Bir e’tibor qilib ko‘ring, telefonda xabar terayotganda bexato yozaman, desangiz, apostrof va tutuq belgilari uchun harflar sahifasidan raqamlar sahifasiga o‘tishingiz kerak. Bu ham katta muammo. Aksariyat kishilar xabar yo‘llashda sahifalarni almashtirib o‘tirmaydi. Natijada “Ozing borasanmi, vaqtim tigiz” kabi tarzda yozilib, yetkazilaveradi. Mamlakat miqyosida savodning yuqorilab bormasligi sabablaridan biri ham ana shudir.

O‘zbek matnlarini texnologiya yordamida ovozlashtirish jarayonlari va natijalarini kuzatsangiz yoki agar matnni ovozli xizmatlarga solsak, ahvol juda ayanchli bo‘ladi. “Alifbodagi ozgarishlar, belgilar yigindisi” deb o‘qib beradi. Siz ham bunga necha bora guvoh bo‘lgansiz. Bularning hammasi nobop alifboning xizmati.

Umuman, amaldagi alifboga isloh juda zarur edi. Shuning uchun bu o‘zgarishlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ma’mura ZOHIDOVA,
Feysbuk

Hamsuhbat

FUTBOL ZAVQI

Birinchi bor “Paxtakor” stadioniga futbol tomosha qilish uchun 1974-yilda kirganman. U paytlarda sobiq Ittifoqning oliy ligasida yigirmaga yaqin futbol jamoasi bo‘lardi. Markaziy Osiyodan Toshkentning “Paxtakor” jamoasi oliy ligada qatnashib, chempionlik uchun kurash olib borar edi. “Paxtakor”ning o‘yinlarini televizor orqali ko‘rib yurganim uchun stadionga kirganimdagi ilk taassurotim hamon yodimda. Televizorda ko‘rib yurgan o‘sha stadion endi ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘lgan edi. O‘yinni stadionda kuzatishning zavqi boshqacha bo‘lishini o‘shanda his qilganman. Muxlislarning his-tuyg‘ulari, hayqiriqlari stadion muhitiga o‘zgacha bir joziba baxsh etardi.

Futbol bo‘yicha har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan Jahon chempionatining Amerika qit’asidagi uch mamlakat — Amerika Qo‘shma Shtatlari, Meksika va Kanadada bo‘lib o‘tgan bu yilgi o‘yinlarini biz, o‘zbekistonliklar, ayniqsa, intiqlik bilan kutdik. Chunki bu yilgi chempionatda O‘zbekiston milliy terma jamoasi ham ilk bor ishtirok etdi. Bizning azaliy orzularimiz ushalib, terma jamoamizning o‘yinlarini o‘zgacha his-hayajon bilan ko‘rdik, kuzatdik, tomosha qildik. Futbolchilarimiz guruh bosqichidagi har bir o‘yinda imkon qadar bor kuch va g‘ayratlarini safarbar etdilar. Tan olish kerak: jamoamiz ilk bor bunday nufuzli musobaqada ishtirok etgani uchun tajriba yetishmadi, degan fikrdaman.

Shu o‘rinda futbol muxlislari orasida bo‘lgan bahs-munozara haqida o‘z fikrimni bildirib o‘tmoqchiman. Italiyalik mutaxassis Fabio Kannavaroning bosh murabbiy etib tayinlanishi to‘g‘risida turli fikr-mulohazalar bildirildi. Kimdir uni yoqladi, kimdir norozi bo‘ldi. Bu tabiiy, albatta. Mening mulohazam shunday: futbol mutasaddilari barcha bildirilgan fikrlarni to‘plab, izchil o‘rganib, tahlil qilib, shunga qarab ish olib borishlari kerak.

Xo‘sh, endi o‘ylab ko‘raylik. Fabio Kannavaro yetakchiligida terma jamoamiz guruh bosqichida qolib ketdi. Buning uchun bosh murabbiy futbolni tushunganlardan ham, tushunmaganlardan ham ijtimoiy tarmoqlar orqali turli gaplarni eshitdi. Agar o‘zimizdan birortasi bosh murabbiy bo‘lib, chempionatda guruh bosqichida qolib ketganida nima bo‘lardi? Bunday vaziyatda, aniqki, futbol ixlosmandlari orasida bosh murabbiylikka chet eldan taniqli mutaxassisni chaqirish lozimligi haqida bong urganlar ham bo‘lardi.

Bu yilgi chempionatda Osiyo qit’asidan to‘qqizta mamlakatning terma jamoalari ishtirok etdilar. Natijalar ko‘ngildagidek bo‘lmadi. Faqat Yaponiya guruh bosqichida g‘oliblar qatoridan joy olib, keyingi bosqichga yo‘l oldi. Biroq ular ham manzilga tez yetdilar: braziliyaliklarning to‘sig‘idan o‘ta olmadilar. Osiyoda kuchli jamoalar qanchalik ko‘paysa, bu bizning terma jamoamiz uchun ham foydalidir. Jahon miqyosidagi musobaqalarga chiqish uchun biznikilar, avvalo, ular bilan bellashib, g‘olib bo‘lishlari kerak. Kuchli raqiblar bilan kechadigan o‘yinlar mahoratni oshiradi, maydonda ko‘nikma va malaka paydo bo‘lishiga olib keladi.

Odatda, har bir chempionatda ba’zi mamlakatlarning terma jamoalari ilk bor ishtirok etadilar. Bu yil ham shunday bo‘ldi. O‘zbekistondan tashqari, Kabo-Verde, Iordaniya va Kyurasao terma jamoalari ham ilk bor kuchli raqiblarga ro‘para bo‘ldilar. Shuni aytish kerakki, ilk bor qatnashayotgan jamoalarga negadir ishonchsizlik bilan qaraydilar. Ko‘pincha bunday qarashlarning asossiz ekanligini ularning dastlabki o‘yinlaridanoq anglab yeta boshlaymiz. Bu yil ham shunday bo‘ldi. Men ular orasidan Kabo-Verde terma jamoasiga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Ko‘pchilik ushbu mamlakatning nomini bu yilgi mundialda ilk bor eshitgan bo‘lsa, ajab emas. Guruh bosqichida Kabo-Verde futbolchilari Ispaniya, Urugvay va Saudiya Arabistoni kabi nomdor jamoalarga munosib qarshilik ko‘rsatib, uchalasi bilan ham durangga erishdi. Uch ochko bilan keyingi bosqichga chiqishdi. Bu bosqichda ular uch karra jahon chempioni Argentina futbolchilari bilan kurash olib bordilar. Nafaqat kurash olib bordilar, balki mardonavor kurashdilar. Buni qayd etilgan hisobdan ham bilish mumkin. Uchrashuvda bir to‘p farqi bilan — 3:2 hisobida — Argentina zo‘rg‘a g‘alabaga erishdi. Hatto Lionel Messining ham yuzidagi xavotirni ko‘rdik.

Kabo-Verdening ajoyib o‘yinlarini ko‘rib, ko‘pchilik o‘zaro suhbatlarda bu mamlakat haqida ma’lumot olishga qiziqa boshladi. Ushbu davlat haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tsam, o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Kabo-Verde G‘arbiy Afrika qirg‘oqlaridan taxminan olti yuz kilometr uzoqlikda joylashgan. Ikkinchi nomi — Yashil Burun orollari. Poytaxti — Praya shahri. Maydoni to‘rt ming uch yuz kvadrat kilometrdan iborat. Aholisi taxminan olti yuz ming kishi. Portugal tili rasmiy til hisoblanadi.

Kyurasao mamlakatining futbolchilari guruh bosqichida yaxshi natijaga erishmagan bo‘lsalar-da, bir jihat bilan rekord o‘rnatdilar. Venesuela sohillari yaqinida joylashgan bu davlat Jahon chempionati tarixida qatnashgan aholisi eng kam mamlakat sifatida rekord o‘rnatdi. Mamlakat aholisi 160 ming kishidan iborat.

Mamlakatimiz sportchilari futbol bo‘yicha jahon miqyosida o‘z tarixlarini yaratib kelmoqdalar. Jahon chempionatlarida bosh hakamlik qilgan Ravshan Ermatovni alohida qayd etish kerak. U uchta chempionatda jami to‘qqizta uchrashuvga bosh hakamlik qilib, bu borada hakamlar orasida rekord o‘rnatdi. Bu yilgi Jahon



chempionatida hamyurtimiz Ilgiz Tantashev ham bir nechta uchrashuvda bosh hakamlik qildi.

Mamlakatimizning 17 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan yosh futbolchilarining xalqaro maydonlarda erishgan yutuqlarini ham mamnuniyat bilan tilga olsak arziydi. O‘zbekiston milliy terma jamoasining bu yilgi chempionatdagi ishtiroki futbolimiz tarixida unutilmas voqea sifatida muhrlandi. Jahon chempionatidagi ilk golimizni urdik. Buni Abbos Fayzullayev boshlab berdi. Shu o‘rinda bir gapni alohida ta’kidlamoqchiman. Birinchi gol urilishida Eldor Shomurodovning hissasi juda katta ekanligini aytib o‘tish joiz. Uning darvozaga yo‘llagan ajoyib zarbasidan so‘ng to‘p darvozabonning qo‘lidan chiqib, uning ustidan aylanib o‘tib ketdi. Abbos esa to‘pga yetib borib, uni darvozaga yo‘lladi.

Bu yilgi mundialni kolumbiyaliklar uzoq vaqt eslab yuradigan bo‘ldilar. Eslaganda ham O‘zbekiston nomi bilan birga eslaydilar. Nega, deysizmi? Ular bu yilgi chempionat turnirida oltita o‘yin o‘tkazib, bor-yo‘g‘i bitta gol o‘tkazdilar. Bu golni ularning darvozasiga milliy terma jamoamiz kiritdi.

Yaqinda ishonchli manbalarda yana bir xushxabarni o‘qidim. O‘zbekiston U-20 terma jamoasi a’zolari Sadriddin Hasanov va Sayfiddin Sodiqovni Portugaliyaning “Braga” klubi o‘z safiga qabul qildi. Ularning kelgusidagi faoliyatlariga muvaffaqiyatlar tilaymiz. Saflari yanada kengayaversin.

Qariyb qirq kun mobaynida futbol ixlosmandlariga hayajonli damlarni hadya etgan Jahon chempionati ham nihoyasiga yetdi. 2026-yilgi mundialda Ispaniya terma jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritib, jahon chempioni bo‘ldi. Argentina futbolchilariga kumush medal nasib etdi. Angliya futbolchilari esa uchinchi o‘rin sohibi bo‘lishdi.

Navbatdagi Jahon chempionati 2030-yilda bo‘ladi. To‘rt yildan so‘ng birinchi Jahon chempionati o‘tkazilganiga yuz yil to‘ladi. Demak, o‘ziga xos yubiley. Ishonamizki, ushbu yubiley chempionatida milliy terma jamoamiz munosib ishtirok etadi va muxlislar istagini amalga oshirish uchun ajoyib o‘yin ko‘rsatadi.

Bunga umid qilgan holda g‘urur, iftixor va ishonch bilan hayqiramiz:

OLG‘A, O‘ZBEKISTON!!!

Said BOLTABOYEV,
Nayman qishlog‘i

Barqarorlik mezoni

YANGI ISH JOYIGA PSIXOLOGIK MOSLASHISH: JAMOA VA XODIM KONSEPSIYASI

Bugungi jadal o‘zgarishlar va shiddatli mehnat bozori sharoitida har qanday tashkilot yoki tizimning barqarorligi nafaqat uning moddiy-texnik bazasiga, balki kadrlar salohiyati va ularning jamoaga qay darajada integratsiyalashuviga bog‘liqdir. Yangi xodimning ish joyiga kelishi shunchaki rasmiyatchilik emas, balki ikki tomonlama murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va kadrlar qo‘nimsizligining oldini olishda strategik ahamiyat kasb etadi.

ADAPTATSIYA – jamoaviy barqarorlik mezoni. Yangi ish joyiga o‘tish har doim o‘ziga xos stressli vaziyat va hayajonni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda nafaqat yangi xodim, balki uni qabul qilayotgan jamoa ham muayyan psixologik bosimni his etadi. Zero har qanday sog‘lom jamoada o‘zaro munosabatlar iyerarxiyasi, yozilmagan qoidalar va hamkasblarning aloqa tizimi allaqachon shakllangan bo‘ladi. Yangi odamning kelishi esa ushbu o‘rnashib qolgan tartibga kutilmaganlik unsurini olib kiradi.

Muvaffaqiyatli moslashuv (adaptatsiya) bu mehnat munosabatlarining barcha ishtirokchilari bir-biriga ko‘nikishi va muhit talablari bilan shaxsning ichki stimullari o‘rtasida muvozanat o‘rnatilishidir. Agar boshlovchining kutganlari (karyera istiqboli, munosib ish haqi, jamoaviy muhit) tashkilot realligiga mos kelmasa, ichki ziddiyat va xavotir yuzaga keladi. Shuning uchun adaptatsiya jarayoni tizimli boshqaruvni talab etadi.

Psixologik va kasbiy adaptatsiya jarayoni o‘rtacha 3 oydan 6 oygacha davom etadi, ayrim og‘ir vaziyatlarda esa bir yilgacha uzayishi mumkin.

Ilmiy va amaliy tahlillar moslashuvning quyidagi qat’iy xronologik tizimini ko‘rsatadi:

TANISHUV BOSQICHI *(1 kundan 1 haftagacha):* yangi xodim makon, asosiy xavfsizlik qoidalari va reglamentlar bilan tanishadi, dastlabki stress darajasi yuqori bo‘ladi.

MOSLASHUV VA FAOL BOSQICH *(1 oydan 3 oygacha):* dastlabki vazifalarni bajarish, ustoz (murabbiy) ko‘magida o‘rganish va jamoa muhitiga kirib borish.

INTEGRATSIYA VA MUSTAHKAMLANISH *(3 oydan 12 oygacha):* xodim to‘liq mustaqillikka erishadi, kompaniya qadriyatlarini qabul qiladi va unumdorlikka chiqadi.

ASSIMILYATSIYA *(12 oydan keyin):* xodim jamoaning ajralmas, “o‘z” odamiga aylanadi.

Har bir xodim yangi muhitga tushganda o‘z psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki xil strategiyadan birini tanlaydi:

PASSIV MOSLASHUV: xodim mavjud “o‘yin qoidalari”ni so‘zsiz qabul qiladi, eski odatlarini tashlab, yangilariga ko‘nikadi. Biroq ichki o‘zgarishlarning og‘riqli kechishi xodimning o‘z potensialini to‘liq ochishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

FAOL MOSLASHUV: xodim tizimni o‘zgartirishga, unga yangilik olib kirishga intiladi. Bu ko‘pincha avtoritar rahbarlar yoki tashkilotga yangicha qon quyish, jarayonlarni isloh qilish uchun kelgan strategik kadrlar tomonidan qo‘llaniladi.

Haqiqiy moslashuvchan insonlar vaziyat talab qilganda “Bu mening ishim emas” yoki “Men bu yerda yetakchi emasman” degan cheklovlarga yopishib olmaydilar; ular mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga har doim tayyor turadi.

MUVAFFAQIYATNI TEZLASHTIRUVCHI OMILLAR

Kompaniyadagi boshqaruv uslubi (ayniqsa, qat’iy vertikal boshqaruv) yangi kelgan xodimdan yuqori intizom talab qiladi.

Jarayonni muvaffaqiyatli yakunlash uchun quyidagi vositalar joriy etilishi shart:

MURABBIYLIK *(mentoring):* rasmiy qoidalardan tashqari, ichki muhitni o‘rgatuvchi tajribali hamkasb biriktirilishi.

MUNTAZAM QAYTA ALOQA: rahbarning xodim yutuqlari bilan shaxsan qiziqishi, har 1-2 haftada norasmiy suhbatlar va puls-so‘rovlar o‘tkazishi.



RAQAMLI KO‘MAK: avtomatlashtirilgan moslashuv tizimlari orqali xodimga yo‘riqnomalar berish (lekin bu jonli muloqot o‘rnini bosa olmaydi).

Xodimlarning lavozim darajasiga ko‘ra adaptatsiya murakkabligi ham farq qiladi: rahbar xodim butun biznes tizimini to‘liq o‘rganishi shart bo‘lsa, kichik mutaxassis uchun qisqa yo‘riqnomaning o‘zi yetarli bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, samarali adaptatsiya bu ikki tomonlama harakatdir. Tashkilot o‘qitish va integratsiya uchun sharoit yaratsa, xodim faollik, intizom va o‘rganishga tayyorlik ko‘rsatishi lozim. Shundagina har qanday jamoada sog‘lom psixologik muhit va yuqori mehnat unumdorligi kafolatlanadi.

Murodbek AVAZOV

Bilasizmi?!

“DEKRET TA’TILI” KIMLARGA VA QANDAY TARTIBDA BERILADI?

Tahririyatimizga o‘quvchilarimizdan turli mavzular va yo‘nalishda savollar keladi. Ularning orasida eng ko‘p berilganlari ya’ni homiladorlik va tug‘ish ta’tili bo‘yicha Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Mehnatga haq to‘lash va mehnat standartlari boshqarmasi boshlig‘i Laziz Qarshiyevdan ma’lumot oldik.

— Bola parvarishi uchun “dekret ta’tili” nima, ta’tilga chiqish tartibi qanday?

— O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan ayolga ikki xil ta’til beriladi. Homiladorlik va tug‘ish ta’tili, oddiy qilib aytganda “dekret ta’tili” hamda homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko‘ra, unga bolasi ikki yoshga to‘lguniga qadar bolani parvarishlash ta’tili.

— Homiladorlik va tug‘ish nafaqasini to‘lash tartibi haqida ham to‘xtalsangiz?

— Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqani tayinlash va to‘lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo‘ladi. Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqasi budjet tashkilotlari tomonidan — mehnat haqi jamg‘armasiga ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan — foyda solig‘ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

2022-yilning sentyabr oyidan boshlab budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda mehnat shartnomasiga asosan oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan ayollarga Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan homiladorlik va tug‘ish nafaqasining qismi to‘lab berilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Homiladorlik va tug‘ish nafaqasining Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan qismi (keyingi o‘rinlarda – nafaqa) minimal iste’mol xarajatlarining 4 baravari miqdorida tayinlanadi. Hozirgi kunda bu 1 994 228 so‘mni tashkil qiladi.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tiliga chiqish uchun fuqarolarga tibbiyot muassasasi (oilaviy poliklinika, tug‘ruq muassasasi, qishloq vrachlik punkti) tomonidan homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi. Shundan so‘ng tibbiyot muassasasining mas’ul xodimi (hamshirasi) tomonidan ushbu varaqadagi ma’lumotlar “Tibbiyot” axborot tizimiga kiritiladi. “Tibbiyot” axborot tizimi ayolning ma’lumotlarini “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga yo‘naltiradi.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi fuqaroning rasmiy bandligi va ish staji hamda mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarini avtomatik ravishda aniqlaydi hamda belgilangan mezonlarga mos kelganda homiladorlik va tug‘ish nafaqasini tayinlaydi. Nafaqa tayinlanganligi haqida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali ayolning telefoniga SMS xabar yuboriladi.

Ayolning nomiga ochilgan, faol holatdagi bank plastik kartasi mavjud bo‘lsa, nafaqa o‘sha bank kartasiga o‘tkazib (to‘lab) beriladi.

Agar bank plastik kartasi mavjud bo‘lmasa, SMSda yashash joyidagi AT “Xalq banki”ning filialiga murojaat etishi ko‘rsatiladi. Murojaatga asosan homiladorlik va tug‘ish nafaqasi naqd pul ko‘rinishida to‘lab beriladi.

— Xodimlarning homiladorlik va tug‘ish ta’tili (dekret)ga chiqish tartiblari qanday?

— O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq ayolga tug‘ruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug‘ruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug‘ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug‘ish ta’tili beriladi.

Bunda, homiladorlik va tug‘ish ta’tili ayolga jamlangan holda hisoblab chiqarilib, tug‘ruqqacha haqiqatda foydalanilgan kunlar sonidan qat’i nazar, to‘liq beriladi.

— Shunday toifadagi xodimlarga qanday imtiyoz va qulayliklar yaratilgan?

— Mehnat kodeksiga muvofiq homilador ayollar va onalarga bir qancha imtiyozlar mavjud.

Jumladan, homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra ishga qabul qilishni rad etish yoki mehnatga haq to‘lash miqdorini kamaytirish taqiqlanadi.

Homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik mehnat ta’tili, ularning xohishiga ko‘ra, homiladorlik va tug‘ish ta’tilidan oldin yoki undan keyin beriladi.

Homilador ayollarni yillik mehnat ta’tilidan chaqirib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bolani parvarishlash ta’tilidan foydalanayotgan xodimga yillik mehnat ta’tili, uning xohishiga ko‘ra, bola parvarishlash ta’tilidan oldin yoxud undan keyin beriladi.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko‘ra, unga bolasi ikki yoshga to‘lguniga qadar bolani parvarishlash ta’tili beriladi.

Bolani parvarishlash ta’tili vaqtida to‘liqsiz ish vaqti shartlari asosida yoki ish beruvchi bilan kelishuv bo‘yicha uyda ishlashi mumkin.

Bolani parvarishlash ta’tillari davrida xodimning ish joyi (lavozimi) saqlanadi.

Ikki yoshga to‘lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo‘shimcha tanaffuslar beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o‘ttiz minutdan kam bo‘lmagan davomiylikda bo‘lishi lozim.



— Imtiyozlar va qulayliklar nodavlat va davlat tashkilotlarida ishlaydigan barcha xodimlar uchun bir xil tatbiq etiladimi?

— Yuqorida keltirilgan imtiyozlar Mehnat kodeksida keltirilgan bo‘lib, nodavlat va davlat tashkilotlari uchun bir xilda amal qiladi.

— Nodavlat tashkilotda ishlaydiganlarga ham “dekret” puli berilsa, tartibi va miqdori davlat tashkilotlaridagi kabi bo‘ladimi?

— Mehnat kodeksining 404-moddasiga asosan homiladorlik va tug‘ish ta’tilidagi xodimga o‘rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘lanadi.

Bu tartib xodim budjet tashkiloti yoki budjet tashkiloti hisoblanmagan tashkilotda band bo‘lishidan qat’iy nazar amal qiladi.

Faqatgina, hozirgi kunda budjet tashkiloti hisoblanmagan yuridik shaxslarda band ayollarga qonunchilik bilan belgilangan homiladorlik va tug‘ish nafaqasining qismi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lab berilmoqda. Qolgan qismi o‘rnatilgan tartibda ish beruvchisi tomonidan qoplanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-sentyabrdagi 515-sonli qaroriga ko‘ra, xususiy korxonalarda, yuridik shaxslarda 6 oy uzluksiz ish stajiga ega bo‘lgan ayollarga dekret puli iste’mol xarajatlarining 4 baravari miqdorida budjet hisobidan to‘lab berilishi nazarda tutilgan. Ortiq qismini ish beruvchilar to‘lashi mumkin. Bu miqdor hozirgi kunda sal kam 2 million so‘m hisoblanadi.

Bola parvarishi uchun nafaqa miqdori esa hozirgi kunda mehnatga haq to‘lash miqdorining 60 foizi, ya’ni 588 ming so‘mni tashkil etadi.

Xayrulla ABDURAHMONOV tayyorladi.

Oyina.uz

Sog‘lom bo‘lay desangiz...

QON BOSIMI TUZALADIMI?

Tasavvur qiling-a, bugungi kunda O‘zbekistonda 8 millionga yaqin odam gipertoniya, ya’ni qon bosimi kasalligi bilan kurashib yashamoqda. Qon bosimi oshishi yoki tibbiy tilda aytganda, arterial gipertoniya bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng keng tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Ilgari bu muammo asosan keksa yoshdagilarda uchragan bo‘lsa, bugun yoshlar, hatto o‘smirlar orasida ham qon bosimi yuqoriligi qayd etilmoqda. Eng xavotirli jihati shundaki, ko‘pchilik odamlar kasallik borligini sezmasdan yillar davomida o‘zlariga bee’tibor bo‘ladilar. shu sababli gipertoniya ko‘pincha “hamroh qotil” deb ham ataladi.

Ko‘pchiligimizni bir savol qiziqtiradi: qon bosimi tuzaladimi? Bu savolga javob berish uchun avval qon bosimi nima uchun ko‘tarilishi va uning paydo bo‘lishiga qanday omillar ta’sir qilishini tushunib olish lozim.

Qon bosimi – yurak tomonidan haydalgan qonning qon tomirlari devoriga ko‘rsatadigan bosimidir. Sog‘lom odamda bu ko‘rsatkich ma’lum chegaralarda bo‘ladi. Qon bosimi uzoq vaqt davomida yuqori bo‘lib qolsa, yurak, buyrak, miya va ko‘z qon-tomirlariga zarar yetkazishi mumkin.

Mutaxassislar yana qat’iy ravishda ta’kidlashicha, yuqori qon bosimi insult, infarkt, yurak yetishmovchiligi va buyrak kasalliklarining asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi.

QON BOSIMI NEGA OSHADI?

Qon bosimi ko‘tarilishiga bir emas, balki bir nechta omillar sabab bo‘ladi. Avvalo, irsiy moyillik muhim ahamiyatga ega. Agar ota-ona yoki yaqin qarindoshlarda gipertoniya bo‘lgan bo‘lsa, kasallikning keyingi avlodlarda uchrash ehtimoli yoki moyillik darajasi yuqoriroq bo‘ladi.

Ikkinchi muhim omil – ortiqcha vazn. Tananing har bir ortiqcha kilogrammi yurakka qo‘shimcha yuk bo‘lib tushadi. Semizlik qon-tomirlarining holatiga salbiy ta’sir qilib, bosimning oshishiga sharoit yaratadi.

Tuzni me’yordan ortiq iste’mol qilish ham gipertoniyaning keng tarqalgan sabablaridan biri. Tuz organizmda suv ushlanib qolishiga olib keladi. Natijada qon hajmi ortib, qon-tomirlaridagi bosim ko‘tariladi.

Kam harakatli turmush tarzi ham xavf omillaridan sanaladi. Inson harakat qilmagan sari yurak-qon tomir tizimi zaiflashib boradi. Jismoniy faollikning yetishmasligi semizlik va modda almashinuvi buzilishlarini ham keltirib chiqaradi.

Chekish va spirtli ichimliklarni muntazam iste’mol qilish ham qon-tomirlarini shikastlab, bosim oshishiga sabab bo‘ladi. Nikotin qon-tomirlarini toraytiradi, bu esa yurakning ko‘proq kuch bilan ishlashiga majbur qiladi. Bundan tashqari, doimiy ruhiy zo‘riqish, asabiylik, uyqusizlik va xavotir ham qon bosimining ko‘tarilishida muhim o‘rin tutadi.

ZAMONAVIY TEXNIKA VA GIPERTONIYA

Bugungi kunda inson hayotini kompyuter, smartfon, planshet va boshqa elektron qurilmalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ularning hayotimizdagi ahamiyati katta bo‘lsa-da, ma’lum ma’noda qon bosimi bilan bog‘liq muammolarning ortishiga ham hissa qo‘shayotgani haqida mutaxassislar ko‘p gapirmoqdalar.

Avvalo, texnikalar insonni kamharakat qilib qo‘ymoqda. Ilgari odamlar ko‘proq yurar, jismoniy mehnat qilar, turli ishlar bilan mashg‘ul bo‘lar edilar. Bugun esa ko‘pchilik kunning katta qismini monitor yoki telefon qarshisida o‘tkazmoqda. Soatlab bir joyda o‘tirish qon aylanishini sekinlashtiradi, ortiqcha vazn yig‘ilishiga sabab bo‘ladi va gipertoniya xavfini oshiradi.

Smartfonlar yana bir muammoni keltirib chiqarmoqda – uyquning buzilishi. Ko‘pchilik kechasi yotishdan oldin ijtimoiy tarmoqlarni kuzatadi, xabarlar o‘qiydi yoki videolar tomosha qiladi. Ekrandan chiqadigan yorug‘lik miyaning dam olish jarayoniga xalal beradi. Uyqu yetishmasligi esa qon bosimining oshishiga olib keluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Yana bir jihat bor. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan xabarlar, bahslar, salbiy axborotlar va doimiy ma’lumot oqimi odamning asab tizimiga bosim o‘tkazadi. Inson ko‘pincha bu holatni sezmaydi, ammo organizm doimiy ruhiy taranglik holatida yashay boshlaydi. Bu esa stress gormonlarining ko‘payishiga va qon bosimining oshib borishiga sabab bo‘ladi.

Masofadan turib ishlash imkoniyatlari kengaygani ham ayrim hollarda salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Ko‘p odamlar kompyuter qarshisida bir necha soat uzluksiz o‘tirib ishlaydilar. Tana harakatsiz qoladi, mushaklar faoliyati pasayadi, qon aylanishi yomonlashadi. Natijada yurak-qon tomir tizimiga ortiqcha yuk tushadi.

Shuning uchun texnikaning o‘zi emas, balki undan noto‘g‘ri foydalanish sog‘liq uchun xavf tug‘dirishini unutmaslik kerak. Ish maromiga ekrandan uzilib, jismoniy harakatlarni qo‘shib olish juda muhim.

QON BOSIMI TUZALADIMI?

Bu savolga javob kasallikning kelib chiqish sabablariga bog‘liq. Agar bosim oshishiga ortiqcha vazn, nosog‘lom ovqatlanish, stress, kamharakatlik yoki zararli odatlar sabab bo‘layotgan bo‘lsa, turmush tarzini o‘zgartirish orqali bosimni me’yorga qaytarish mumkin. Ko‘plab bemorlarda vaznni kamaytirish, tuz iste’molini cheklash, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish va stressni kamaytirish yaxshi natija beradi.

Biroq gipertoniyaning ba’zi turlari uzoq muddatli nazorat va davolanishni talab qiladi. Bunday holatlarda inson o‘zini yaxshi his etsa ham shifokor tavsiya qilgan davolash choralarini davom ettirishi lozim. Chunki bosim vaqtincha me’yorlashgani kasallik butunlay yo‘qolganini anglatmaydi.

Mutaxassislar gipertoniyani bir kunda tuzaladigan kasallik sifatida qabul qilmaslikni tavsiya qiladilar. Uni nazorat qilish, asoratlarining oldini olish va sifatli hayot kechirish mumkin. Ko‘p hollarda aynan shu maqsad eng muhim hisoblanadi.

QON BOSIMINI TUSHIRISH UCHUN NIMALAR QILISH KERAK?

Eng avvalo, tana vaznini nazorat qilish zarur. Hatto bir necha kilogramm vazn tashlash ham qon bosimining pasayishiga yordam beradi.

Ratsionda sabzavot va mevalar ulushini ko‘paytirish, yog‘li va tuzli mahsulotlarni kamaytirish foyda beradi. Kun davomida yetarlicha suv ichish ham muhim.

Har kuni kamida 30 daqiqa jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish tavsiya etiladi. Bu yurish, yengil yugurish, velosiped haydash yoki boshqa mashg‘ulotlar bo‘lishi mumkin.

Sifatli uyqu ham muhim ahamiyatga ega. Katta yoshli odamlar uchun odatda 7-8 soatlik uyqu tavsiya etiladi.

Smartfon va kompyuterdan foydalanish vaqtiga ham e’tibor qaratish kerak. Har soatda qisqa tanaffus qilish, ko‘proq harakatlanish va yotishdan oldin ekran qarshisida uzoq vaqt o‘tirmaslik foydali hisoblanadi.

Shuningdek, muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tib turish kerak. Chunki qon bosimi ko‘tarilganini inson har doim ham sezavermaydi.

Bugun O‘zbekistonda ham qon bosimi oshishi zamonaviy hayotning eng keng tarqalgan muammolaridan biriga aylandi. Irsiyat, noto‘g‘ri ovqatlanish, semizlik, ruhiy zo‘riqish va zararli odatlar kabi omillar bilan bir qatorda, bugungi raqamli hayot tarzi ham gipertoniyaning yosharib ketishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Butun dunyoda soatlab kompyuter qarshisida o‘tirish, smartfonlarga qaramlik, uyquning buzilishi va doimiy axborot bosimi hali o‘rta yoshda bo‘lgan insonlar salomatligiga ham yuqori darajada salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani tahlil qilinmoqda.

Qon bosimi ko‘p hollarda butunlay yo‘qolib ketmaydi. Biroq uni nazorat qilish, asoratlarining oldini olish va sog‘lom hayot kechirish mumkin. Buning uchun inson o‘z salomatligiga befarq bo‘lmasligi, turmush tarzini qayta ko‘rib chiqishi va zarur hollarda shifokor tavsiyalariga amal qilishi lozim. Sog‘lom hayot tarzi ko‘p hollarda eng yaxshi dori vazifasini bajaradi.



O‘ZBEKISTONDA GIPERTONIYA QANCHALIK KENG TARQALGAN?

Qon bosimi oshishi O‘zbekistonda ham eng dolzarb tibbiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda katta yoshli aholining taxminan 46-47 foizida arterial gipertoniya kuzatiladi. Bu degani, deyarli har ikki nafar katta yoshli insonning birida qon bosimi me’yordan yuqori bo‘lishi mumkin. 2024-yil uchun keltirilgan baholashlarga ko‘ra, O‘zbekistonda gipertoniya bilan yashovchi odamlar soni qariyb 8 million nafarni tashkil etadi. Ulardan katta qismi o‘z kasalligi haqida bilsa-da, hamma ham davolanmaydi yoki qon bosimini to‘liq nazorat qila olmaydi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, gipertoniya bilan og‘riganlarning katta qismida qon bosimi yetarli darajada nazorat qilinmaydi. Bu esa yondosh kasalliklarni kuchaytirib yubormoqda va og‘ir asoratlar xavfini oshirimoqda. Bugungi kun shifokorlari 40 yoshdan keyin har bir inson qon bosimini muntazam tekshirib turishi lozimligini, hatto hech qanday shikoyati bo‘lmasa ham har uch oyda bir marta profilaktik ko‘rikdan o‘tishini tavsiya etadilar.

Qon bosimiga to‘satdan yo‘liqib qolishni istamasangiz, kayfiyatingizni juda yuqori bo‘lishiga e’tibor bering. Agar tuzalmoqchi bo‘lsangiz ham, kayfiyatni ko‘taring. Yaxshi kayfiyat salbiy ma’noli so‘zlarni aytishdan asraydi. Ana shuning o‘zi ham atrofingizda ijobiy energiya paydo qiladi.

Hurmatli gazetxon, hech qachon bemor bo‘lmang. Sahifamizni esa kuzatib borsangiz, sizga foydali maslahatlarni tavsiya etishga harakat qilamiz.

Gulnora SHERMATOVA

Tibbiy maslahat

YOZGI MAVSUMDA OVQATDAN ZAHARLANISHLARNING OLDINI OLAYLIK!

Yoz mavsumining issiq kunlarida ovqatdan zaharlanish holatlarining ko‘payish xavfi ortadi. Bunga, asosan, yuqori harorat tufayli oziq-ovqat mahsulotlarining tez buzilishi, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi, tayyor ovqatlarning noto‘g‘ri saqlanishi kabi omillar sabab bo‘ladi.

Ovqatdan zaharlanishga tez buziladigan mahsulotlarni, jumladan, go‘sht, baliq, tuxum va sut mahsulotlarini uzoq vaqt ochiq havoda saqlash, notoza suvdan foydalanish, meva va sabzavotlarni yuvmasdan iste’mol qilish, tayyor ovqatlarni uzoq vaqt xona haroratida saqlash, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari sotiladigan joylarda sanitariya talablariga amal qilmaslik sabab bo‘lishi mumkin.

Bunday holatlarning oldini olish uchun, avvalo, ovqat tayyorlash yoki iste’mol qilishdan oldin, shuningdek, hojatxonadan chiqqach, qo‘llarni sovun bilan yaxshilab yuvish zarur. Xomligicha iste’mol qilinadigan meva va sabzavotlarni toza suvda yaxshilab yuvish, tayyor ovqatlar hamda tez buziladigan mahsulotlarni sovitkichda saqlash lozim. Ayniqsa, go‘sht va tuxumli taomlarni yetarlicha issiqlikda pishirishga e’tibor qaratish kerak.

Shuningdek, noma’lum sharoitda tayyorlangan yoki ochiq havoda uzoq vaqt saqlangan mahsulotlarni xarid qilmaslik tavsiya etiladi. Ichimlik suvi sifatiga ham alohida e’tibor berib, faqat ishonchli manbalardan olingan yoki qaynatilgan suvdan foydalanish lozim.

Ovqatdan zaharlanish odatda qorinda og‘riq, ich ketishi, qayt qilish, tana haroratining ko‘tarilishi, bosh og‘rig‘i va holsizlik kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Bunday holatlarda o‘zini o‘zi davolash bilan shug‘ullanmasdan, darhol shifokorga murojaat qilish kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va iste’mol qilishda gigiyenik qoidalarga qat’iy amal qilish orqali yozgi mavsumda ko‘plab zaharlanish holatlarining oldini olish mumkin. Buning uchun har bir insondan hushyorlik, tozalik va o‘z salomatligiga e’tiborli bo‘lish talab etiladi.

Xayrulla TURSUNMATOV,
Bekobod tumani Sanepid bo‘limi
Sanitariya va gigiyena bo‘limi mudiri

QOZON BOSHIDA

QURTOBA – QADIMIY TA’M, QARDOSHLIK RAMZI



Milliy taomlar har bir xalqning tarixi, urf-odati va madaniyatini o‘zida mujassam etadi. Ana shunday noyob taomlardan biri – qurtoba bo‘lib, u nafaqat o‘zbek va tojik oshxonasining ajralmas qismi, balki qardoshlik va mehmondo‘stlik timsoli sifatida ham qadrlanadi.

Tojikistonda qurtoba shunchaki taom emas, balki milliy o‘zlik va mehmondo‘stlik ramzi hisoblanadi. An’anaga ko‘ra, qurtobani “tovoq” deb ataladigan katta yog‘och idishda tortib, oila a’zolari va mehmonlar bilan birgalikda qo‘lda iste’mol qiladilar. Bu esa ahillik, birdamlik va mehr-oqibatni ifodalaydi.

O‘zbekistonda ham qurtoba o‘z o‘rniga ega. Ayniqsa, Tojikiston bilan chegaradosh Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo hamda Toshkent viloyatida ushbu taom keng tarqalgan. So‘nggi yillarda qurtobxonalarning ko‘payishi, taomning arzon, to‘yimli va tez tayyorlanishi uni, ayniqsa, yoshlar va talabalar orasida ommalashtirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda ham qurtoba tez-tez tilga olinib, hatto palov va qurtoba haqidagi hazil-mutoyibalar internet foydalanuvchilarining sevimli mavzularidan biriga aylandi.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani, xususan, Sangardak tog‘li hududlarida qurtoba qadimdan tayyorlanib kelinadi. Mahalliy momolar yozda tayyorlagan qurut qish davomida ana shu tansiq taomning asosiy masallig‘i bo‘lib xizmat qilgan. Bugun ham ushbu hududlarda qurtoba milliy taom sifatida avaylab saqlanib kelinayotgan oshpazlik merosidir.

Yozning jazirama kunlari hukm surayotgan bir paytda, qurtobaning tayyorlanish siri va o‘ziga xos ta’mi bilan tanishib qo‘yish foydadan xoli emas.

Kerakli masalliqlar:

- 1 dona tandirdan yangi uzilgan patir;
- 300 gramm mol go‘shti;
- 100 gramm qo‘y dumbasi;
- 150 gramm sariyog‘;
- 400 gramm qurut;
- 4 dona pomidor;
- 4 dona bodring;
- 2 dona piyoz;
- ko‘katlar
- quritilgan rayhon;
- ta’bga ko‘ra tuz.

Tayyorlanishi:

Tandir patiri 10 daqiqa sovitiladi. Yog‘och tovoqqa taxminan 1 litr qaynatilgan issiq suv quyilib, qurut va quritilgan rayhon yaxshilab ezib aralashtiriladi. Alohida tovada sariyog‘ bilan qo‘y dumbasi eritilib, parrak-parrak qilib to‘g‘ralgan go‘sht qovuriladi. Pomidor, bodring, piyoz va ko‘katlar mayda to‘g‘ralib, aralashtiriladi.

Qo‘lda maydalangan patir ustiga eritilgan qurut aralashmasi quyiladi. So‘ng pomidor-bodringli aralashma, undan keyin esa qovurilgan go‘sht va uning seli solinadi. Taom 5 daqiqa tindirilgach, dasturxonga tortiladi. Aynan shu qisqa vaqt ichida qovurilgan go‘shtning xushbo‘y seli patirga singib, qurtobaga o‘ziga xos nozik ta’m va yoqimli hid bag‘ishlaydi.

Qadimiy ta’mni bugungi kun bilan bog‘lab kelayotgan qurtoba nafaqat to‘yimli milliy taom, balki ikki qardosh xalqning do‘stligi, mehmondo‘stligi va mushtarak madaniyatini ifodalovchi bebaho gastronomik merosdir.

Mohidil BOBOJONOVA

KUN FOTOSI

BAXTLI LAHZALARINGIZNI BIZ BILAN BO‘LISHING!















“EdEx Kids” bolalar bog‘chasi tarbiyalanuvchilari”

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

ISSN 2091-5497